**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI QARSHI FILIALI**

**KOMPYUTER INJINERINGI**
**fakulteti**
**AXBOROT TEXNOLOGIYALARI**
**kafedrasi**

# « Axolini turmush darajasini oshirishni avtomatlashtirilgan axborot bazasini yaratish.»

mavzusida

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**


Bitiruvchi ____________ Abdiraxmonov.T.M.
Imzo

Rahbar ____________ Muxitdinov.X.S.
Imzo


*"Himoyaga ruxsat etildi"*
*"Axborot texnologiyalari"*
*kafedrasi mudiri ____________*
*I.f.d. X.S. Muxitdinov*
*____»______2015yil*

*Himoya uchun DAKga yuborildi:*
*"Kompyuter injineringi"*
*fakulteti dekani_______*
*S.Davronov*
*"_____»______2015yil*

**Qarshi – 2015**

**TOSHKENT AXBOROT TEXNALOGIYALARI UNIVERSITETI QARSHI FILIALI**

**KOMPYUTER INGINERINGI FAKULTETI**

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI KAFEDRASI

**“5521900--INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI” talim yo’nalishi**

**«Tasdiqlayman»**
__________kaf.mudiri
**I.f.d. X.S.Muxitinov**
«____» ______ 2015yil

**Bitiruv malakaviy ishi bo’yicha**

**TOPSHIRIQ**

**Talaba: Abduraxmonov Tolibbek Maxmarejabovich**

**1.Malakaviy ish mavzusi:** Axolini turmush darajasini oshirishni avtomatlashtirilgan axborot bazasini yaratish.

**2.TATU Qarshi filelining** № ____buyrug’i bilan_____________________da tasdiqlangan

**3.Malakaviy ishni topshirish muddati** <<______>>2015yil _____________

**4.Malakaviy ish uchun malumotlar:** Axolini turmush darajasini oshirishda AKT ning roli, Aholisini turmush darajasini oshirishda infratuzilma muassasalarining ma’lumotlar ombori, Qishloq aholisi turmush darajasini oshirishda mehnat resurslarining roli AKTdan foydalanishda xavfsizlik texnikasi oid o’quv va elektron adabiyotlar.

**5.Xisobiy izoҳ qismining mazmuni (ishlab chikilishi lozim bulgan savollar ruyxati):** Kirish, Korxona joylashgan hududning fizik va geografik tavsifi, MS Access muhitida ma’lumotlar bazasi ishlab chiqish, ma’lumot olishda tezkorlikni ta’minlash bo’yicha sql so’rovlar tashkil qilish, xulosa, adabiyotlar.

**6.Grafik materiallar. Slaydlar:** (bajarilishi shart bulgan chizma va grafiklar): Bitiruv

malakaviy ishni hisobot qismini bajarish davomida rasmlardan va algoritm chizmalaridan foydalanilgan. Prezentatsiya slaydlardan tashkil topgan.

## 7. Malakaviy ish bo'yicha maslaxatchi:

| № | Bo`lim nomi. | Maslahatchi. | Imzo, sana | |
|---|---|---|---|---|
| | | | Topshiriq berilgan sana. | Maslahatchi imzosi. |
| 1 | Texnologik va dasturiy qism. | Muxitdinov X.S. | | |

## 8. Malakaviy ishni bajarilishi bo'yicha kalendar grafik

| № | Malikakiy ishning bo'limlari | Malakaviy ishning xajmi, bet | Umumiy xajmga nisbat, % | Bajarnlganligi to'g'risida belgi | Izox |
|---|---|---|---|---|---|
| | Kirish | 4 | 5.71 % | Bajardi | |
| **I BOB** | **Axolini turmush darajasini oshirishda AKT ning roli** | | | | |
| 1.1 | Aholini turmush darajasini oshirishda AKTning moxiyati | 7 | 10 % | Bajardi | |
| 1.2 | Aholini turmush darajasini oshirishda infratuzilma muassasalarining ma'lumotlar ombori | 6 | 8.57 % | Bajardi | |
| 1.3 | Aholini turmush darajasini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ma'lumotlar bazasi | 4 | 5.71 % | Bajardi | |
| **II BOB** | **Aholi turmush darajasini oshirishni MS Access tizimida ma'lumotlar bazasini** | | | | |
| 2.1 | MS Access tizimida ma'lumotlar bazasini loyihalash | 7 | 10 % | Bajardi | |
| 2.2 | Aholining tarkibi nomli jadvallari asosida so'rovlar yaratish | 6 | 8.57 % | Bajardi | |
| 2.3 | Aholi nomi jadvallari va so'rovlari asosida formalar yaratish | 10 | 14.28% | Bajardi | |
| **III. BOB** | **Koson tuman aholi turmush darajasini oshirish yullari** | | | | |
| 3.1 | Koson tuman aholisining turmush sharoiti va hozirgi holatining statistik | 7 | 10 % | Bajardi | |
| 3.2 | Koson tumani aholi turmush darajasini oshirishda kam ta'minlanganlar bilan ishlash xizmatlari va tarmoq | 9 | 12.85 % | Bajardi | |
| 3.3 | Qishloq joylarda aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy | 7 | 10% | Bajardi | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | **Xulosa** | 1 | 1.42 % | Bajardi | |
| | **Foydalanilgan adabiyotlar** | 2 | 2.85 % | Bajardi | |
| | **Ilova** | | | Bajardi | |
| | Jami: | 70 | 100 % | | |

Malakaviy ish raxbari: __________ *I.f.d. X.S. Muxitdinov*

Topshiriq olingan kun: __________

Talaba: __________ T.M.Abduraxmonov

## Annotatsiya

Xozirgi kunda jamiyatda boshqaruv samaradorligini oshirishda zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarini qo'llash zamon talabiga aylandi. Shu sabab ushbu bitiruv malakaviy ish aholini turmush darajasini oshirishnining ma'lumotlar bazasini shakllantirish va to'plangan ma'lumotlarni yaratilayotgan ma'lumotlar bazasiga kiritishga bag'ishlangan. Aholi turmush darajasi haqidagi ma'lumotlarni doimiy to'ldirib borish va yangilash, hamda axborot almashuv tezkorligini ta'minlash BMIning amaliy ahamiyatidir.

## Annotation

Nowadays the role of using modern communication and information technologies in order to improve effectiveness of management is the demand of society. Therefore this final qualifying work is dedicated to formation informational base of increasing people's daily life. Importance of this final qualifying work is to fill, renew and provide exchanging information on time about social life.

## MUNDARIJA


| | | |
|---|---|---|
| | **Kirish** | 3 |
| **Axolini turmush darajasini oshirishni avtomatlashtirilgan axborot bazasini yaratish. (Koson tumani misolida)** | | |
| **I.** | **I-bob.Axolini turmush darajasini oshirishda AKT ning roli** | 8 |
| 1.1. | Axolini turmush darajasini nazariy asoslari | 8 |
| 1.2. | Aholisini turmush darajasini oshirishda infratuzilma muassasalarining ma’lumotlar ombori | 15 |
| 1.3 | Axolisi turmush darajasini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ma’lumotlar bazasi | 21 |
| **II** | **II-bob. Koson tuman axoli turmush darajasini oshirish yullari** | 25 |
| 2.1. | Koson tuman axolisining turmush sharoiti va xozirgi xolatining statistik taxlili | 25 |
| 2.2. | Koson tumani axoli turmush darajasini oshirishda kam ta’minlanganlar bilan ishlash | 32 |
| 2.3. | Qishloq aholisi turmush darajasini oshirishda mehnat resurslarining roli | 38 |
| **III.** | **III-bob. Qishloq joylarda axoli turmush darajasini ijtimoiy rivojlantirishning istiqbollari** | 48 |
| 3.1. | Qishloq joylarda axoli turmush darajasini oshirishda ijtimoiy rivojlantirishning istiqbollari | 48 |
| 3.2. | Qishloq axolisiga xizmatlarning shakllanish xususiyatlari va ustuvor yo’nalishlarning taxlili | 55 |
| 3.3. | Qishloq joylarda axoli turmush darajasini oshirishda xizmat | 61 |
| 3.4 | Qishloq joylardaaholi turmish darajasini oshirishda ijtimoiy rivojlantirish | 64 |
| | Xulosa | 71 |
| | Adabiyotlar | 72 |

# Kirish

Yangi iqtisodiy tizimga oʻtish davrining hozirgi bosqichida butun iqtisodiyotda boʻlgani kabi, qishloq joylarda ham islohotlar yangicha sifat mazmuniga ega boʻlib, iqtisodiy taraqqiyotning eng samarali shakllari sifatida birlashtirmoqda.

Bozor islohatlarini chuqurlashtirish va modernizatsiyalash bosqichida qishloq aholisi turmush darajasini yaxshilash, qishloqda aholi ijtimoiy holatining sifat darajasini oshirish va rivojlantirish mexanizmlarini ekonometrik modellar asosida takomillashtirish milliy iqtisodiyotimiz oldida turgan eng dolzarb muammolardan biridir .

“Bugungi kunda xalqimizning aksariyat qismini, ya’ni 50 foiziga yaqinini qishloq aholisi tashkil qiladi. Bundan kelib chiqadigan mantiqiy xulosa shuki, yurtimizning yanada obod, xalqimiz hayotining yanada farovon boʻlishi va oldimizda turgan yuksak vazifalarning bajarilishi, hech shubhasiz, qishloqlarimizning taqdiri va kelajagi bilan bogʻliq ekanini barchamiz yaxshi anglaymiz”[1]. 2009 yil -“Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” deb e’tirof etilishi ham ana shu anglashning amaldagi ifodasidir.

Ayniqsa, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotgan hozirgi sharoitda qishloqlarda xizmat koʻrsatish va kichik biznes sohasini yanada rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va hayot darajasini  oshirish eng muhim omil hamda ustuvor vazifa boʻlib qolmoqda.

Qishloq aholisini zamonaviy uy-joy bilan ta’minlash maqsadida qishloqlar investitsiyalarni joylashtirish, qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirish va uning tarkibiy strukturasini mavjud yer salohiyatidan kelib chiqib tashkil qilish davr talabi boʻlib qoldi.

Mintaqaviy koʻp ukladli iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishini baholash shuni koʻrsatmoqdaki, qishloq joylarini infratuzilmasini shakllantirishning hududiy dasturlarni ishlab chiqish bosqichida ham, ularni amalga oshirishda ham bir qator kamchiliklar mavjud. Ular, asosan, aniq tadbirlarni ishlab chiqish, fermer va dehqon xoʻjaliklarni, kasanachilik orqali aholi bandligi va farovonligini oshirish, agroservisni rivojlantirish, kommunal xizmatlarni takomillashtirish orqali qishloq aholisiga qulayliklar yaratish, uy xoʻjaligi farovonligi, uy-joy qurishda investitsiyalarni rivojlantirishning ilgʻor shakllari va usullarini tadbiq qilishning modellarini takomillashtirishni taqozo

---

[1] Каримов И. А. Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш- бизнинг олий мақсадимиз. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 16 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси.

etmoqda. Shuningdek, qishloqlar miqiyosiga istiqbol uchun ishlab chiqilgan aniq maqsadli dasturlar, ularni amalga oshirish modellari va mexanizmlari toʻla shakllanmagan. Bu oʻz navbatida qishloqlarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishiga, aholi turmush darajasini oshirishga, ishlab chiqarish, xususan, xizmat koʻrsatish sohasini rivojlantirishga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda.

**Mavzuning dolzarbligi:** Bitiruv malakaviy ishida Qashqadaryo viloyatida aholi bandligini avtomatlashtirilgan monitoringini amalga oshirish jarayonini yuritishning dasturiy taʼminotini yaratish mavzusida ish olib borilgan. Aholi bandligini avtomatlashtirilgan monitoringini amalga oshirish maʼlumotlar bazasini boshqarish, monitoring qilish bir qator ishlarni amalga oshirishga imkon berishida zamonaviy dasturiy ilovalardan foydalanilganligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

**Muammoning oʻrganilganlik darajasi:** Respublikamiz, shuningdek, MDH va boshqa xorijiy mamlakatlarning iqtisodiyotga oid ilmiy adabiyotlarida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik modellashtirish va prognozlashning nazariy va amaliy jihatlariga bagʻishlangan ishlar keng oʻrin olgan. Xususan, A.Smit, J.M.Keyns, R.Solou, M.Meskon, X.Armstrong, A.Lesha, X.Richardson, Dj.Teylor, M.Templa, M.Piters, A.Xosking, G.Jounz, L.Abalkin, V.Abchuk, A.Busigin kabi olimlarning ilmiy Bitiruv malakaviy ishi ishlarida modellashtirishning nazariy muammolari tadqiq etilgan.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik modellashtirish borasida T.Shodiyev, B.Xodiyev, N.Maxmudov, B.Berkinov, A.Abdugʻaffarov, Q.Safayeva, SH.Holmoʻminov, X.Shodiyev, B.Salimov, B.Ataniyazov, O.Abdullayev, N.Aimbetov, B.Gʻoyibnazarov, X.S.Muxitdinov va Y.Muhamedov singari olimlar Bitiruv malakaviy ishi ishlarini olib borgan. Ularning ilmiy ishlarida iqtisodiyotning mintaqaviy, tarmoq, infratuzilma obyektlarini modellashtirishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan.

**Bitiruv malakaviy ishi maqsadi:** respublikamizda qishloq aholisi turmush darajasining ijtimoiy rivojlanish jarayonlarini tahlil qilish, modellashtirish va prognozlashtirish asosida uning ustuvor yoʻnalishlarini aniqlash va rivojlantirish yuzasidan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Ishning maqsad va vazifalari.** MS Accessda qishloq axolisini turmush darajasini oshirish yullarini avtomatlashtirilgan monitoringini amalga oshirishning elektron baʼzasini yaratish
(Qashqadaryo viloyati misolida) MS Accessda avtomatlashtirilgan dasturiy taʼminotini yaratish va ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul

qilishlariga yordam beradigan ma'lumotlar tayyorlashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish lozim.

- qishloq axolisini turmush darajasini oshirish yullarini avtomatlashtirilgan monitoringini avtomatlashtirish masalasi aniqlash;
- qishloq axolisini turmush darajasini oshirishda ma'lumotlar bazalari va ularni boshqarish tizimlari haqida nazariy ma'lumotlarga ega bo'lish;
- qishloq axolisini turmush darajasini oshirish yullarini bandligini avtomatlashtirilgan monitoringini taxlil qilish;
- qishloq axolisini turmush darajasini oshirishni avtomatlashtirilgan monitoringini amalga oshirish ma'lumotlar bazasining konseptual sxemasini yaratish;
- qishloq axolisini turmush darajasini oshirish yullarini avtomatlashtirilgan monitoringini amalga oshirishni ma'lumotlar bazasi jadvallarini yaratish;
- qishloq axolisini turmush darajasini oshirish yullarini avtomatlashtirilgan monitoringini amalga oshirish jadvallari va so'rovlari asosida forma yaratish;
- qishloq axolisini turmush darajasini oshirish yullarini avtomatlashtirilgan monitoringini amalga oshirish boyicha xisobotlarni loyihalash va tayyorlash;
- Tafsiya va mulohazalar ishlab chiqish.

**Bitiruv malakaviy ishining obekti.** Qashqadaryo viloyati qishloq aholisi ma'lumotlar bazasi.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari.** Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari bo'lib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yil 12 noyabr Olim Majlis Senati va Qonunchilik palatasining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" nomli ma'ruzasida "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish" bandi, O'zbekiston Resbublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish, "Internet"ning xalqaro axborot tizimlariga keng kirib borishini ta'minlash dasturni ishlab chiqishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi, O'zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-1989, 27.06.2013 (2013 g.) . "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish

chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1942, 26.03.2013 . “ Mamlakatimizning dasturiy ta’minot vositalari ishlab chiquvchilarini rag‘batlantirishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” qarori PQ-2042, 20.09.2013. qarori va boshqa meyoriy xujjatlar, shuningdek, soha yetakchi olim va mutaxasislari tomonidan yaratilgan nazariyalar tashkil qiladi.

**Bitiruv malakaviy ishining yangiligi.** Bitiruv malakaviy ishining ilmiy-uslubiy yangiligi quyidagilarda o’z ifodasini topgan:

- qishloq axolisini turmush darajasini oshirish yullarini avtomatlashtirilgan monitoringini avtomatlashtirish masalasi aniqlangan;
- qishloq axolisini turmush darajasini oshirishda ma’lumotlar bazalari va ularni boshqarish tizimlari haqida nazariy ma’lumotlar berilgan;
- qishloq axolisini turmush darajasini oshirish yullarini avtomatlashtirilgan monitoringini taxlil qilingan;
- qishloq axolisini turmush darajasini oshirishni avtomatlashtirilgan monitoringini amalga oshirish ma’lumotlar bazasining konseptual sxemasini yaratilgan;
- qishloq axolisini turmush darajasini oshirishni avtomatlashtirilgan monitoringini amalga oshirishni ma’lumotlar bazasi jadvallarini yaratilgan;
- qishloq axolisini turmush darajasini oshirish yullarini avtomatlashtirilgan monitoringini amalga oshirish jadvallari va so’rovlari asosida forma yaratilgan;
- qishloq axolisini turmush darajasini oshirish yullarini avtomatlashtirilgan monitoringini amalga oshirish boyicha xisobotlarni loyihalash va tayyorlatgan;
- Tafsiya va mulohazalar ishlab chiqilgan.

**Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati**. Bitiruv malakaviy ishida erishilgan natijalar ta’lim muassasalarida joriy qilinganda, viloyatda aholini demografik holatini aniqlashda tadqiiqotchi va doktarantlar, magistrlar uchun ma’lumotlarni avtomatlashtirishga, ular haqida batafsil ma’lumotlar olishni amalga oshirishga yordam beradi.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibi.** Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida Respublikamizda axborot texnologiyalarini jamiyatimizning barcha sohalariga joriy qilish, ta’lim tizimi, ishlab chiqarish va iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o’rni haqida to’xtalib o’tilgan.

# I-bob.Axolini turmush darajasini oshirishda AKT ning roli

## 1.1. Axolini turmush darajasini oshirishda AKTning moxiyati.

Bozor munosabatlariga oʻtish davrida Oʻzbekistonda aholi turmush darajasini oshirishning yangi ijtimoiy –iqtisodiy sharoitlariga mos konsepsiyasini yaratishga zarurat tugʻildi. Mazkur konsepsiyani shakllantirishda soʻnggi yillarda jahon amaliyotida keng qoʻllanilayotgan “Turmush sifati” konsepsiyasining ayrim qoidalaridan foydalanish mumkin. “Turmush sifati” konsepsiyasi insonning jismoniy, aqliy va ijtimoiy barkamolligini belgilovchi shartlarni shakllantiradi. Bu yerda gap faqat turmush sifatini (ovqatlanish, uy joy, ish bilan bandlik, ta’lim darajasini) baholovchi obyektiv omillar haqida emas, balki inson tomonidan “oʻz farovonligi”, “baxt”, “qoniqish”, “rohat” kabi tushunchalarni subyektiv his qilish toʻgʻrisida ham bormoqda. Masalan, AKT ning rivojlanishi, sogʻliq darajasi, oilaviy munosabatlari, ishi, moddiy ahvoli, yaratuvchanlik qobiliyati va hokazolardan qoniqish, hayotidan qoniqishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shunday qilib, “Turmush sifati” konsepsiyasi insonning atrof-muhit bilan oʻzaro munosabatlarini ham oʻz ichiga oladi. Bu munosabatlar ehtiyojlar qondirilganligi va mavjud imkoniyatlarning kutilgan imkoniyatlarga mosligi darajasini ifodalaydi.

Davlat va nodavlat institutlari keng xalq ommasining manfaatlarini himoya qilgan holda aholining farovon yashashiga yoʻl ochadi, biznes foydani koʻp olish maqsadida ish haqini pasaytirish, ijtimoiy nafaqalarni kamaytirish va ish kunini uzaytirish kabi xatti-harakatlarga ham yoʻl qoʻymaydi. Demak, aholi turmush farovonligidagi oʻzgarishlarni davlat va fuqarolik jamiyati institutlarisiz tasavvur etib boʻlmaydi. Shunga qaramay, ba’zi asarlarda, davlat hukmron sinflarning iqtisodiy va siyosiy maqsadlariga xizmat qiladi[1], degan gʻoya olgʻa surilib, uning faol ijtimoiy siyosati, ahamiyati kamsitiladi.

Oʻzbekistonda ham faol ijtimoiy siyosatga amal qilish orqali, aholini katta miqdordagi bepul xizmatlar bilan ta’minlaydi, uning muhtoj qatlamlariga ijtimoiy yordam koʻrsatadi. Shu maqsad yoʻlida yalpi ichki mahsulotning 10%ga yaqini sarflanmoqda. Davlat ijtimoiy sarflari qiyoslama narxlar boʻlib, jon boshiga hisoblaganda muttasil oʻsmoqda.

Respublikamizning bozor munosabatlariga oʻtishda oʻz yoʻlidan izchillik bilan borishi, demokratik oʻzgarishlar respublikani rivojlangan mamlakatlar

[1] Политическая экономия. Учебник для высших и средних специальных учебных заведений. – М.: 2005. – С 234.

qatoriga olib chiqish, uning halqaro obro‘-e’tiborini mustahkamlash uchun puxta moddiy negiz yaratadi.

«O‘tish davri iqtisodiyoti» tushunchasining yangiligi shu bilan bog‘liqki, u «eski» ma’muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotining bozor iqtisodiyotiga o‘tish ehtiyoji bilan bog‘liq holda vujudga keldi, chunki yangi bozor munosabatlarini yo‘lga qo‘yishning favqulodda murakkabligi amalda uni bir zumda amalga oshirish mumkin emasligini ko‘rsatadi. Shu sababli, bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida yangicha iqtisodiy munosabatlar – bozor munosabatlarini, jamiyatning yangi iqtisodiy, mulkiy zaminini shakllantirishni nazarda tutuvchi o‘tish davri iqtisodiyoti deb ataluvchi bosqichni vujudga keltirdi.

O‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida daromadlar darajasiga bog‘liq bo‘lmagan turmush farovonligi tendensiyalarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ta’lim, sog‘liqni saqlash, toza ichimlik suvi, kommunal xizmat va issiqlik bilan ta’minlanish juda o‘zgaruvchan hisoblanadi. Ushbu xizmatlarga erishishdagi tengsizlik umuman saqlanib qolgan holda ayrim mamlakatlarda, xususan, MDH davlatlarida kuchaymoqda. O‘tish mamlakatlarining ko‘pchiligida nisbatan yuqori daromad olish boshlangan bo‘lsa ham aholiga ko‘rsatilgan xizmatlar sifati yaxshilanmadi.

Dunyo iqtisodiyoti tajribasi ko‘rsatishicha, ishlab chiqarish qancha yuqori bo‘lsa, farovonlik ham shuncha yuqori bo‘ladi. Biroq farovonlikning o‘sish tezligi iqtisodiyotning o‘sish tezligi bilan bir xil kechmaydi. Chunki bu daromadlarning qancha qismi iste’molga sarflanishi bilan bog‘liq. Bu esa jamg‘arish miqdoriga borib taqaladi. Binobarin, bu borada daromadlarning taqsimlanishi ham ahamiyatlidir. Taqsimlashga uning ishtirokchilarining ijtimoiy majburiyati ta’sir etadi. Agar davlatning ijtimoiy funksiyalari kuchli bo‘lsa, yalpi daromaddagi davlat iste’moli katta bo‘ladi. Bordi-yu firmalar o‘z zimmasiga katta majburiyat olsa, ularning daromadlardagi ulushi ham katta bo‘ladi. Nihoyat, ijtimoiy ehtiyojlarning talay qismi aholi daromadi hisobidan qondirilsa, uning daromaddagi hissasi yuqori bo‘ladi. Bozor tizimida yalpi daromadning asosiy qismi xonadon xo‘jaliklariga tegadi. Daromadning bunday taqsimlanishi uning jamg‘arishdan so‘ng qolgan qismiga oiddir.

Aholi daromadlari taqsimlanishidagi o‘zgarishlarga qanday omillar ta’sir ko‘rsatdi? MDH mamlakatlari aholisi daromadlarida tengsizlik yuqori bo‘lishida o‘tgan asrning 90-yillaridagi ish haqlari bo‘yicha qarzdorlik muhim omil bo‘ldi. Qarzdorlik qisqarishi natijasida iqtisodiyotni sog‘lomlashtirish sohasidagi farq pasaydi. Polsha va Ruminiyada ta’limga sarflangan qo‘yilmalardan tushumlar ish

haqidagi farqlar oʻsishiga olib keldi va tengsizlikka yuqori bosim oʻtkazildi [2].

Iqtisodiy va ijtimoiy farovonlik darajasi turmush sifatini tavsiflagani uchun Jahon banki ular koʻrsatkichlarini inson barkomolligi indeksida hisobga oladi. Bu turmush sifati boʻlganidan uning umumlashgan koʻrsatkichi har doim xam iqtisodiy farovonlik darajasiga mos kelavermaydi. Agar iqtisodiy farovonlik ishlab chiqarish darajasiga bevosita bogʻliq boʻlsa, ijtimoiy farovonlik bundan tashqari jamgʻarilgan milliy boylikka, masalan, intellektual potensial, noishlab chiqarish fondlari hajmiga ham bogʻliq boʻladi. Farovonlikning hamma jihatlari umumlashgan hamda milliy farovonlik fondida ifoda etiladi. Bu esa, isteʼmol fondi va xalq turmushini yaxshilashga qaratilgan noishlab chiqarish investitsiyalarining yigʻindisidir. Oʻzbekistonda hajmi YAIMning 82%iga teng bu fond tarkibida isteʼmol fondi asosiy boʻlib, uni iqtisodiy salohiyat belgilab beradi. Har qanday jamiyat u qanday tuzumda boʻlmasin, qancha ishlab chiqargan boʻlsa, shuncha isteʼmol etishi mumkin. Ammo isteʼmol, bundan tashqari, daromadlarni taqsimlanishiga ham bogʻliq. Agar jamgʻarish koʻp boʻlsa, isteʼmol nisbatan kam, bordiyu jamgʻarish kam boʻlsa, isteʼmol nisbatan koʻp boʻladi. Biroq, bu farovonlik uchun ishlab chiqarishning birlamchi boʻlishini yoʻqqa chiqarmaydi.

Qodirov A. “Ijtimoiy tenglikni taʼminlash uchun recpublikamizda qator ijtimoiy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, kam ish haqi va boshqa toʻlovlar odatda, oldindan koʻpaytirib kelindi, narx-navo oʻzgarishi bilan bogʻlab olib borildi, bu esa aholi toʻlov qobiliyatining saqlanib qolishini taʼminladi va turmush darajasi keskin pasayib ketishiga yoʻl qoʻymadi. Shu tariqa eng kam ish haqini oshirish yoʻli bilan aholi oʻrtacha ish haqining, pul daromadlarining ham oshishiga erishildi” deydi.

Akobirova A. “Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholinint turmush darajasini oshirishning asosiy koʻrsatkichlaridan biri yetarli darajada ish haqi” deb taʼkidlaydi[3].

-isteʼmol talablarni aniqlash; ularni rivojlantirish imkoniyatlarini baholash hamda ularni qondirishning shakl, usul va navbatliligini belgilash;

-aholi daromadlari strukturasini oshirish va oʻzgarish istiqbollarini belgilash;

-isteʼmolning oʻsishini oldindan koʻra bilish va uning tarkibini takomillashtirish;

-isteʼmol talabi tuzilmasini oʻzgartirish ;

-uy-joy muammosini hal qilishning yoʻllari va muddatlarini belgilash;

---

[2] *World Bank 2003: Washington 2004. p29

- xizmat koʻrsatish, maorif, madaniyat, sogʻliqni saqlash, shuningdek transport va aloqa sohalarini rivojlantirish kabilar.

Qishloq aholisining turmush darajasini yaxshilash va turmush farovonligini oshirishning muhim omillaridan biri qishloq infratuzilmasi hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida amalga oshirilayotgan ijtimoiy hayotni demokratlashtirish asta-sekin hokimiyatni tadbirkorlar qoʻliga bermoqda. Mulkning ishlab chiqaruvchilarga qaytarib berilishi, bozor iqtisodiyotni toʻliq amalga oshirilishi, aholi turmush darajasining oʻsishiga olib keladi.

Bizning fikrimizcha, oʻtish davri uzoq muddatli jarayon sifatida shartli ravishda iqtisodiy islohotlar, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish, jamiyatni demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiyalash kabi oraliq bosqichlarni oʻz ichiga oladi.

Bozor iqtisodiyotiga oʻtish davrining oʻziga xos eng muhim qonuniyatiga aylangan oʻzgarishlari sifatida uchta oʻzgarishni qarash mumkin:

- resurslarni yakka tasarruf etish vazifasining davlat «qoʻldan ketishi»;
- byudjet inqirozi va transformatsion pasayish;
- yangi mulk shaklidagi yirik va kichik xoʻjalik yurituvchi subyektlar hisobiga koʻp ukladli iqtisodiyotning shakllanishi.

Aholi isteʼmol xarajatlari holatining tahlili aholi isteʼmol xarajatlarini istiqbolli baholash bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan bir qator muammolarning hal qilinishi lozimligini koʻrsatdi. Oldindan istiqbolli baholashni taʼminlash uchun quyidagi axborot manbaidan foydalanildi:

a) Tuman qishloq aholisining pul xarajatlari va daromadlarining dinamikasi;

b) Tuman qishloq aholisining byudjeti;

v) Tuman isteʼmol byudjeti.

Oʻzaro bogʻlanishning tahlili davomida qishloq aholisi olgan moddiy neʼmatlar va xizmatni oldindan baholashning tizimi kelib chiqadi.

Yuqoridagilarga asoslanib, mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida qishloq joylarda aholi turmush sharoiti, turmush tarzi va turmush darajasini oshirish uchun, har bir mintaqaning iqlimi, urf-odati, bozor iqtisodiyoti sharoitlarini hisobga olgan holda, ekonometrik modellashtirishdan foydalanishni keng yoʻlga qoʻyish uchun qator muammolarni hal qilish talab etiladi:

-qishloq bilan shahar oʻrtasidagi xizmat koʻrsatish darajasidagi tafovutlarni bartaraf qilish ;

-qishloq joylarda xizmat koʻrsatuvchi bozor infratuzilmasi subyektlarini

ustuvor tarzda rivojlantirishni boshqarishni modellashtirish;

-qishloq joylarda xizmat koʻrsatuvchi bozor infratuzilmasi subyektlari oʻrtasidagi raqobat muhitini yaxshilash;

-qishloq joylarda zamonaviy ilgʻor texnologiyalarni joriy etib, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqaruvchi mukammal texnologik jarayonlarni ustuvor rivojlantirish;

-qishloqlarda ishlab chiqarish fondlarini va ishchi kuchlarini xoʻjalik oborotiga yanada toʻlaroq jalb qilishni, ya’ni jamiyatning chegaralangan resurslaridan toʻgʻri foydalanishni boshqarishni modellashtirish ;

-qishloq xoʻjaligida kichik biznes jadal rivojlanishi uchun tashkiliy va iqtisodiy shart –sharoitlar yaratish ;

-qishloq joylardagi kichik va yirik korxonalarga xorijiy investitsiyalarni jalb etish va investitsiya jarayonlarini boshqarishni modellashtirish .

Qishloq aholisining turmush sharoiti va turmush darajasining sifatini oshirish, ayniqsa, xizmat koʻrsatish sohasida olib borilayotgan iqtisodiy islohatlarga bogʻliq.

- qishloq sharoitiga koʻra ilmiy asoslagan holda aholining turmush darajasi ta’rifini va tasnifini aniqlash bilan bogʻliq muammolar;
- qishloq aholisi turmush tarzi va darajasini baholash muammolari;
- qishloq aholisi turmush sharoiti koʻrsatkichlari tizimini ishlab chiqish va tavsiflash;
- qishloq infratuzilmasini rivojlantirish;
- qishloqlarda uy-joy shart-sharoitlarini oshirish maqsadida investitsiyalarni optimal joylashtirish modellarini takomillashtirish ;
- qishloq joylarda aholi bandligini oshirish;
- qishloq aholisi turmush darajasining rivojlanish tendensiyalarini turli usullar (ssenariy, ekspert-hamkorlik tizimlari) yordamida baholash.

Bu muammolar yechimini aniqlash va istiqboldagi rivojlanish prognozlarini ishlab chiqishni ekonometrik modellar asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq boʻladi.

Bu koʻrsatkichlarga koʻproq ta’sir etuvchi omil aholiga xizmat koʻrsatish sohasi hisoblanadi (1.1.1-rasm).




**1.1.1-rasm**. Qishloq aholisi turmush darajasiga ta'sir qiluvchi omillar.

Qishloq joylarda aholining turmush darajasini baholashning yana muhim ko'rsatkichlaridan biri aholi turmush tarzi hisoblanadi. Aholi turmush tarzi – aholining joylashuvi, aholi yashaydigan joyda ishlab chiqarishning o'ziga xos

xususiyatlari, yer-suv va tabiiy resurslar mavjudligi, aholi daromadlari, aholining bandligi, qishloq aholisining xizmat koʻrsatish sohalari bilan ta’minlanganligi, qishloq joylarida sanoat qurilish korxonalari joylashuvi kabi koʻrsatkichlarini yanada toʻliqroq ifodalashga imkon yaratadi 1.2-rasm.




**1.1.2-rasm.** qishloq aholisining turmush tarzi[4]

Xulosa qilib aytganda, qishloq aholisining turmush darajasini yaxshilashga bir qancha omillar ta’sir koʻrsatadi. Biz tahlil natijasida asosan aholi joylashuvi, korxonalar mavjudligi, xizmat koʻrsatish sohalar hajmining yuqoriligi, qishloq xoʻjalik mahsulotlari yetishtirishga moʻljallangan yer-suv bilan ta’minlanganligi, hattoki aholining zich joylashuvi ham turmush sharoitni oshirishga katta ta’sir koʻrsatishiga ishonch hosil qildik. Bular aholi daromadining oshishiga katta ta’sir koʻrsatadi.

[4] Муаллиф ишланмаси

## 1.2 Aholisini turmush darajasini oshirishda infratuzilma muassasalarining ma’lumotlar ombori

Moddiy tovar va buyumlar ishlab chiqarish tarmoqlari va korxonalarining samarali faoliyat yurgizishi turli soha va yoʻnalishlarda oʻzaro bogʻliq, aloqador tarmoq hamda muassasalarning mavjudligi, mukammalligi va samarali ishlashi bilan chambarchas bogʻliqdir. Zotan, moddiy ishlab chiqarish tarmoq va korxonalari faoliyatiga ta’sir etuvchi, uni tashkil etishda bilvosita ishtirok etuvchi shunday tarmoq va muassasalar mavjudki, ular mohiyatdan infratuzilma tushunchasi va kategoriyasi tarzida talqin etiladi.

Ma’lumki, hozirgi bozor sharoitida infratuzilma asosiy tizimlardan biri hisoblanadi. Chunki, iqtisodiyotning hamma tuzilmaviy boʻgʻinlarining faoliyati samaradorligi infratuzilmalarning rivojlanish darajasiga chambarchas bogʻliqdir. Lekin infratuzilmalarga davlat tomonidan katta e’tibor berilsa ham, uning rivojlanishi bir qancha sabablarga koʻra sust bormoqda. Bunga bozor iqtisodiyoti oʻtish jarayonida eski infratuzilmalarning buzilishi va ularning yangi bozor mexanizmi sharoitiga moslashish sustligi, moddiy bazaning qaloqligi, kerakli mablagʻ va tadbirkorlik tajribasi yetishmasligi, xizmatlarga boʻlgan talabning toʻlov qobiliyati darajasi pastligi, va albatta, infratuzilma toʻgʻrisida bilim yetarli emasligi shu jumlasiga kiradi.

“Infratuzilma” atamasi harbiy leksikondan kelib chiqib, harbiy kuchlar xarakatini ta’minlovchi inshootlar (binolar)ning majmuasi ma’nosini bildirar edi. Iqtisodiy adabiyotlarda bu atama XX asrning 40 yillarida paydo boʻlib, sanoat va qishloq xoʻjalik ishlab chiqarishiga xizmat koʻrsatadigan (qurilish, yoʻllar, kanallar, portlar, koʻpriklar, aerodromlar, omborlar, energetika xoʻjaliklari, temir yoʻl transporti, aloqa, suv ta’minoti va kanalizatsiya, umumiy va malakaviy ta’lim, fan, sogʻliqni saqlash va hokazolar kabi) xoʻjalik tarmoqlarning majmuasini anglatgan [24].

Infratuzilma boʻyicha nazariy Bitiruv malakaviy ishilarning aksariyati XX asrning 60 yillar ohiri va 70-yillar boshiga toʻgʻri keladi. Bu [38, 39, 48] ishlarida bayon etilgan. Bu ishlarga xos xususiyat shundan iboratki, infratuzilma atamasining keng yoritilgan, ya’ni nafaqat transport, aloqa va moddiy-texnik ta’minoti sohalari, balki noishlab chiqarish va institusional infratuzilma sohalarini qamrab olingan.

«Infratuzilma» atamasining keng foydalanishiga qaramasdan turli xil tariflari mavjud.

Masalan, amerikalik olimlar Makkonnell K.R., Bryu S.L. ta’kidlashicha:

“infratuzilma butun iqtisodiyot uchun kapital qurilmalardir (yo‘llar, shahar transport tizimlari, suv tozalash qurilmalari, munitsipal tizimlari, suv ta’minoti, aeroport)”. Fuqarolar va firmalar ular xizmatidan odatda davlat ta’minoti orqali foydalanishadi. “Infratuzilma firma uchun – bu mahsulotni ishlab chiqarishi uchun zarur bo‘lgan xizmatlar va qurilmalardir”. Ularni o‘z mablag‘lari bilan tashkil etish qimmatga tushganligi bois davlat va boshqa firmalar tomonidan ta’minlanadi degan fikrni oldinga suradi [30].

Bir guruh Rossiya olimlari infratuzilmaga butun xizmat ko‘rsatish tizimi, ya’ni «ishlab chiqarishga va aholiga xizmat ko‘rsatish» tizimini tushunishadi [27, 34]. Boshqa olimlar infratuzilmaga faqat ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatishni tushunishadi, va uning vazifasi «ishlab chiqarishning umumiy sharoitni yaratib berish», hamda «asosiy ishlab chiqarish faoliyatini ta’minlash»dan iboratligini deb bilishadi [25].

Shunday fikr ham borki, infratuzilma bu «sanoat korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun kerakli moddiy-texnika sharoitlarini ta’minlab beruvchi» obyekt va inshootlarning majmui, «faoliyat erkinligini ta’minlashga qaratilgan milliy boyligining qismi»dir [20].

O‘zbek olimlari fikriga ko‘ra, infratuzilma – “takror ishlab chiqarish shart-sharoitlari (yo‘llar, aloqa, transport, ta’lim, sog‘liqni saqlash sohalari va boshqalar)ni ta’minlaydigan ishlab chiqarish va noishlab chiqarish majmuidir. Asosiy ishlab chiqarish infratuzilmasi - bu energiyani ta’minlovchi, transport va aloqa zanjiridir” [31].

Boshqa bir manbaga ko‘ra infratuzilma – bu “halq xo‘jaligini yurgizib turish uchun umumiy sharoit yaratib beruvchi sohalardir. Ularning faoliyat natijasi – natura shakldagi mahsulotlar emas, balki xizmatlardir” [20].

Umuman olganda, shunday xulosa qilish mumkinki, infratuzilma tarkibiga moddiy ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatadigan, bilvosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq tarmoqlari kiradi.

Bozor munosabatlariga o‘tishi bilan infratuzilma sohalari iqtisodiyotni boshqarish vositasiga aylangan. Bu sohalarning  mahsulotlari (xizmatlari) bozorni tartibsizlikka olib keladi, chunki bozor narxlaridan ancha past yuradi, ya’ni bozor munosabatlariga rioya qilinmaydi, lekin ularda band bo‘lgan shaxslar ish haqini oladi. Bu esa aholining to‘lov qobiliyati talabining oshishni ta’minlab beradi.

Qishloq ahlisini turmush darajasini oshirishda , mamlakat rivojining hozirgi bosqichning o‘ziga xos xususiyati infratuzilma rolini oshirish va uni takomillashtirishdan iborat.

Bugungi kunda qishloq xoʻjaligida mavjud infratuzilma muassasalarining xizmat koʻrsatish sohalari nuqtai nazardan uch guruhga boʻlinadi



**1.2.3-rasm.** Infratuzilma muassasalarining toifalari va takribi

***<u>1) Ishlab chiqarish infratuzilmalar.</u>*** Bu ishlab chiqarishni amalga oshirish bilan bogʻliq xizmatlarni koʻrsatuvchi muassasalar majmuidan tashkil topgan boʻlib, ular oʻz xizmatlari uchun maʼlum miqdorda daromad olishadi.

Rejali iqtisodiyot paytida bazis tarmoqlarini rivojlantirish bilan infratuzilmalarni rivojlantirish oʻrtasida nomutanosiblik vujudga kelgan edi. Chunki infratuzilma asosiy ishlab chiqarishning ikkilamchi element va ahamiyati past hisoblaganligi bois unga yetarli boʻlmagan mablagʻ ajratgan edi.

Har bir iqtisodiyotning shakllanishida jamiyatni rivojlantirish uchun asosi hisoblangan ishlab chiqarishga katta ahamiyat ega, shuning uchun ham avvalom bor ishlab chiqarish infratuzilmalarga eʼtibor berilar edi.

Infratuzilma dastlabki rivojlanish paytidan to ishlab chiqarishning mashina usuliga oʻtish davrgacha asosiy elementiga kiritilmagan edi. Umumiy ishlab chiqarishda ishlab chiqarish infratuzilmaning ulushi juda kichik edi.

Ishlab chiqarish infratuzilma toʻgʻrisida gap yuritganda shuni taʼkidlash kerakki, u u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarmaydi, balki uni ishlab chiqarish uchun kerakli sharoitni yaratib beradi. Infratuzilma vazifalarning hilma-hilligi iqtisodiyotning oʻzgaruvchanligidadir va u davr mobaynida oʻzgaradi. Shuning uchun ishlab chiqarish infratuzilmaga tarif berilganda uning hozirgi paytda vazifalarni aniqlash toʻgʻri keladi.

Ishlab chiqarish infratuzilmaning asosiy oʻziga xos xususiyati shundan iboratki, birinchidan, ishlab chiqarish infratuzilma sohasida mehnatni sarf qilishni talab qilmoqda va u milliy daromad qiymatini oshiradi. Ikkinchidan, infratuzilma sohasida yangi moddiy shakliga ega boʻlgan mahsulot ishlab chiqiladi.

Ishlab chiqarish infratuzilma sohasining mahsulotlarini omborga yoki zahiraga qoʻyish mumkin emas, chunki u axborotni berish, saqlash jarayoni bilan bogʻliq. Ishlab chiqarish infratuzilmani qoʻshimcha yoki ikkilamchi soha sifatida qarash mumkin emas.

Ishlab chiqarish infratuzilmalarning faoliyat yuritishi ikki tomonlama xarakterga ega: bir tomondan moddiy ishlab chiqarishga

xizmat koʻrsatadi, ikkinchi tomondan – ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etuvchi mehnat resurslarni takror ishlab chiqadi.

***2) Ijtimoiy infratuzilmalar*** – aholining shaxsiy extiyojlarini qondirish, normal hayot kechirishni ta'minlash, aholining taffakurni rivojlantirish faoliyatiga qaratilgan xizmat koʻrsatish sohasining tarmoq obyektlari (aholiga xizmat koʻrsatish boʻyicha transport va aloqa, ta'lim, sogʻliqni saqlash) majmuasidir.

Ijtimoiy infratuzilmasi asosiy tuzilmasining qoʻshimcha yoki alohida elementlariga xizmat koʻrsatish mexanizmiga kirmaydi. Chunki ijtimoiy xizmat koʻrsatishning obyekti – aholi hisoblanadi, va ishlab chiqarishga xizmat koʻrsatuvchi infratuzilmalardan farq qiladi, chunki u noishlab chiqarish sohasiga xizmatidan iborat. Shu bois bu turdagi muassasalarni pul mablagʻlari bilan ta'minlashi davlat yoki mahalliy byudjet hamda boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Ijtimoiy infratuzilmalarning vazifalari:

1. Oʻsib borayotgan avlodni tarbiyalash, malakasini oshirish, qayta malakasidan oʻtish (ta'lim olish);

2. Mehnat qobiliyati davrining davomiyligini oshirish (sogʻliqni saqlash);

3. Ish kuni davomida mehnat unumdorligini pasaytirishni oldini olish (umumiy ovqatlanish, yoʻlovchilar transporti);

4. Ishchilarning xordiq chiqarish sharoitni ta'minlab berish, ularning madaniyat darajasini oshirish (uy-joy xoʻjaligi, madaniyat, san'at).

***3) Bozor infratuzilmasi*** bozorda mahsulot, pul va ishchi kuchlari harakatini ta'minlovchi korxona va Aholini oʻz ichiga oladi. Bu infratuzilmaning zamonaviy turi hisoblanadi. Ular oʻz faoliyatini toʻliq xizmat koʻrsatishdan tushadigan mablagʻlar hisobidan amalga oshiradi.

Iqtisodiyotning bozor mexanizmi rivojlanishi bilan birga talab va taklifni aks ettiruvchi tartibli tizim, ya'ni alohida bozor ehtiyojlarini qondirishga ixtisoslashgan yangi faoliyat turlarini shakllantirishga muhtoj tugʻiladi. Ushbu bozorlarning vujudga kelishi ularni tartibli faoliyat yuritishni ta'minlab beruvchi yangi Aholi, idoralar paydo boʻladi.

Bozor infratuzilma - sotuvchi va xaridorni bir-biri bilan aloqa oʻrnatishda asosiy bozor jarayonlarini tashkiliy va moddiy jihatdan ta'minlab beruvchi xizmatlar sohalarini hamda ularning tovar

aylanmasi, tovar va pul almashuvi hamda iqtisodiy-moliyaviy faoliyati kategoriyani ifodalaydi.

Bozor infratuzilmasi 4ta asosiy vazifasini oʻz ichiga oladi:

sugʻurta, auditrolik faoliyati, konsalting va attestatsiya boʻyicha ayrim xizmatlar turlari evaziga xavf-xatar darajasini pasaytirish;

faktoring, brokerlik va maklerlik xizmatlari, ishchilarni va pudratchilarni shartnoma asosida sifatli tanlash, takomillashgan maxsus aloqa vositalarni qoʻllash hisobiga aylanma vositalarining tez aylantirish. Vositalarning aylanish tezligiga ta’sir etuvchi asosiy eng muhim omili bank tizimining turli hil iqtisodiy subyektlardan toʻlovlarni olish, toʻlovlarni berish va oʻtkazib berish boʻyicha tezkor va uzluksiz mehnat hisoblanadi;

ijara va lizing faoliyati, qimmatli qogʻozlar emissiyani kengaytirish, ishchilarni menejment, injiniring sohasida malakaviy tayyorlash va qayta tayyorlash, kichik va oʻrta korxonalarning keyingi oʻsish hisobiga korxonalarning rivojlantirish;

rekalama va boshqa visitalarni qoʻllagan holda tovar va xizmatlarni xaridorgacha yetkazib berish boʻyicha marketinga koʻmaklashish, xaridorlarning talablarini va aniq bir bozorlarning hajmlarini oʻrganish boʻyicha nazariy Bitiruv malakaviy ishi ishlarni olib borish va boshqalar.

Shunday qilib, infratuzilma muassasalari asosan uch turiga, ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor infratuzilmalarga boʻlinadi. Ularning har biri iqtisodiyotni barqarorlashtirish va ishlab chiqarishni jadallashtirish, xususan uning tarkibidagi xoʻjalik yuritish subyektarning faoliyatini tartibga solish, uygʻunlashtirish va rivojlantirishga koʻmaklashish ma’lum darajada ta’sir etadi.

## 1.3 Aholisi turmush darajasini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ma'lumotlar bazasi

Iqtisodiyotni tarkibiy tubdan oʻzgartirish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash va uning raqobatbardoshligini keskin oshirish, aholi turmush darajasini yaxshilash Oʻzbekistonda olib borilayotgan islohotlarning ustuvor yoʻnalishlari hisoblanadi. Bu boradagi maqsadlarga erishish koʻp jihatdan ichki imkoniyatlar va manbalardan, boy tabiiy-iqtisodiy salohiyatdan unumli foydalanishni taqozo etadi.

Xususan, iqtisodiyotning hududiy tarkibini tubdan takomillashtirish, mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyatdan unumli foydalanish, avvalambor, qishloq joylarda aholining bandlik muammolarini hal qilish asosida turmush darajalarini yanada oshirish, iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida tarkibiy oʻzgartirishlar va iqtisodiyotni modernizatsiyalash siyosati qishloqlardagi xizmat koʻrsatish sohalarini rivojlantirishga asoslangan boʻlishi oʻta dolzarb masala hisoblanadi. Shuningdek, choʻl hududlarida joylashgan hududlarni ijtimoy-iqtisodiy rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish ham mamlakat taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega.

Avvalambor, yetarli darajada rivojlangan hududlar, jumladan, choʻl va choʻl oldi hududlari iqtisodiyotini jadal rivojlantirish hisobiga ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqni bosqichma-bosqich qisqartirishga erishish Oʻzbekiston hududlari strategiyasining asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilangan .



**1.3.4-rasm.** Qishloq aholisi turmush sharoitiga ta’sir etuvchi omillar.

Qishloq hududlarini majmuali rivojlantirish strategiyasining asosida aholi turmush farovonligini oshirish hamda qishloq hududlari iqtisodiyotining raqobatbardoshligini o‘stirish muammosi turadi. Bu vazifani qishloq hududlari taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatuvchi quyidagi omillar majmuasi yordamida amalga oshirish mumkin 1.4-rasm:

• iqtisodiy omillar: iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishi mintaqadagi mavjud tabiiy resurslarga, ishlab chiqarish infratuzilmasiga va iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishiga bog‘liqdir.

• ijtimoiy omillar: mintaqa taraqqiyoti va aholi turmush darajasiga axoli daromadlaridagi tafovutlar, ishsizlik darajasi, sog‘liqni saqlash va ta’lim tizimining holati kabi qator ijtimoiy ko‘rsatkichlar ta’sir ko‘rsatadi.

• ekologik omillar: atrof-muhitning holati, dastavval, resurslardan tabiatga zarar yetkazmay foydalanishga bog‘liqdir.

ma’muriy omillar: mahalliy boshqaruv va hokimiyat organlari faoliyatining samaradorligi, ular faoliyatini boshqa subyektlar bilan uyg‘unlashuvi mintaqa rivojlanishining asosiy shartlaridan biridir

Biz olib borayotgan Bitiruv malakaviy ishi aynan qishloq aholisining turmush darajasini yaxshilash maqsadida ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan. Aholi ijtimoiy turmush darajasining yaxshilanishi respublika hududlarining barqaror rivojlanishiga bog‘liq. Respublikamizda qishloq aholisining barqaror o‘sishida ijtimoiy-iqtisodiy yo‘naltirilgan ishlab chiqarishning rag‘batlantirilishi, amalga oshirilayotgan islohotlarning ishlab chiqarishni barqarorlashtirishga ta’siri katta ahamiyatga ega.

Iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish strategiyasini izchil davom ettirishda qishloq aholisi turmush darajasini oshirish, agrar soha infratuzilmalarini rivojlantirish va uning faoliyat mexanizmlarini takomillashtirish, talab va taklif asosida boshqariladigan qishloq xo‘jalik mahsulotlari bozorini shakllantirish bugungi kunning muhum vazifasiga aylandi. Haqiqatda, islohotning strategiya va taktikasi nafaqat aholining yashash darajasini ko‘tarish va iqtisodiy o‘sishga erishish, balki iqtisodiy islohotlar muvaffaqiyatli olib borilishi uchun ham asosdir.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish yuzasidan ko‘rilayotgan tadbirlar tizimining negizini mulkchilik munosabatlarini qayta qurish tashkil

qiladi, buni amalga oshirmay turib, respublikamizning qishloq joylarida, agrar sohalarida amaliy, iqtisodiy suverenitetini, korxonalarning samaradorligini, oxir oqibatda, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishni ta’minlab boʻlmaydi. Bu jarayonlar xoʻjalik munosabatlarida, aholining ijtimoiy tarkibida, uning turli tabaqalari daromadlari va mulkiy holatida jiddiy oʻzgarishlarni keltirib chiqarishi mumkinligini e’tiborga olib, iqtisodiy nomutanosiblikka va ijtimoiy keskinlikka yoʻl qoʻymaslik uchun mulkchilikning xilma-xil shakllariga bosqichma-bosqich oʻtib boriladi. Iqtisodiyotda mulkchilikning turli-tumanligini shakllantirishning zarurligini qayd qilgan holda respublikamiz Prezidenti I.Karimov quyidagicha ta’kidlaydi: “...birinchi galdagi asosiy vazifa -mulkdorlar sinfini shakllantirish masalasini tubdan hal qilish lozim. Boshqacha aytadigan boʻlsak, biz oʻz oldimizga qoʻygan maqsadni -xususiy mulkchilik yetakchi oʻrinda turadigan koʻp ukladli iqtisodiyotni barpo etish maqsadini amalga oshirishimiz kerak.”[5] Bu maqsadni amalga oshirishga bir qator vosita va yoʻnalishlar orqali erishish mumkin boʻlib, ular orasida mamlakatimizning yanada gullab-yashnashi koʻp jihatdan qishloqlarimizning obod boʻlishi, aholi turmush darajasining yuksalishiga bevosita bogʻliq.

Qishloqlarda aholi turmush darajasini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi turli hududlarda turli xususiyatlarga ega boʻlishi iqtisodiy muammolar xarakteridagi farqlar bilan izohlanadi. Bu yunalishda ijobiy oʻzgarishlarni amalga oshirmasdan turib qishloq hududlarini strategik rivojlantirib boʻlmaydi. Bu suv boʻyicha ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda jiddiy qiyinchilik va muammolarga duch kelayotgan Qashqadaryo Tumani uchun alohida ahamiyatga ega. Shu boisdan Tumanda qishloq darajasini va hududning har tomonlama rivojlanish startegiyasini ishlab chiqish zarurati hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Qishloq aholisi turmush darajasining ijtimoiy rivojlanishi strategiyasini ishlab chiqishda tizimli yondashish usulini qoʻllash, unda amalga oshayotgan ehtimolli jarayonlar qonuniyatlarining miqdor va sifat tomonlarini oʻrganish va baholash, bular esa, murakkab bozor iqtisodiyotining tuzilish mexanizmlarini

[5] Каримов И. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. –Т.: Ўзбекистон, 1999 . 32 б

o‘rganish va ularni ekonometrik modellashtirish imkoniyatini yaratadi. Bunda har bir jarayonga murakkab tizim sifatida qaraladi.

Qishloq joylarni rivojlantirish yuzasidan prognozlar Tumanning hududlarini qamrab olib, ularning iqtisodiy rivojlanish va aholi turmush darajalari o‘rtasida mavjud bo‘lgan tafovutlarni yumshatish uchun xizmat qiladi. Strategiya uchun zarur bo‘lishi mumkin bo‘lgan eng muhim umumiy xulosalardan biri shundan iboratki, ijtimoiy infratuzilma va xizmatlar sifatini yaxshilash imkonini beradigan dasturlarni hayotga tadbiq etish yo‘li bilan alohida e’tiborga olinishi ko‘zda tutilgan.

Mazkur Bitiruv malakaviy ishida taqdim etilayotgan Tuman qishloq aholisi turmush darajasini rivojlantirish strategiyasi O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan aholi turmush darajasi oshirish strategiyasida bayon etilgan maqsadlarga muvofiq ravishda Tumanda kam ta’minlanganlik darajasini pasaytirish va ijtimoiy ta’minotni yaxshilash maqsadlariga erishish uchun umummilliy va mahalliy darajada keyingi 2010 – 2015 yillar davomida amalga oshirilishi ko‘zda tutilayotgan bir qator siyosiy va loyihaviy chora-tadbirlar ham hisobga olingan.

Xulosa qilib aytganda, keyingi 2007 – 2015 yillar davomida (va keyingi davrda ham) Qashqadaryo Tumani hududiy rivojlantirish strategiyasining tarkibiy qismi sifatida qabul qilinadigan siyosat va loyihalar tuproq unumdorligi va suv resurslarini saqlab qolish, yerlar degradatsiyasi (tanazzuli) va sahrolanishga qarshi kurashish, keyinchalik aholining ish bilan ta’minlanish darajasini tartibga solish imkoni bo‘lishi uchun tug‘ilish darajasini pasaytirish, texnologik modernizatsiya va insoniy kapitalni shakllantirish, investitsiyalarni muqobil joylashtirish, bolalar farovonligiga sarmoyalar yo‘naltirish borasidagi uzoq muddatli (2020-2025 yillar davrigacha qabul qilingan) maqsadlarga muvofiqdir.

# II.bob. Aholi turmush darajasini oshirishni MS Access tizimida ma’lumotlar bazasini

## 2.1 MS Access tizimida ma’lumotlar bazasini loyihalash

Aholi turmush darajasini oshirishni ma’lumotlar bazasini yaratishda keng qo‘llaniladigan dasturiy vositalaridan biri bo‘lib **Microsoft Access** dasturidan foydalanamiz.

Ma’lumotlar bazasini ishlab chiqishga o‘tishdan oldin Microsoft Access dasturi ishga tushirilib, qattiq diskda ma’lumotlar bazasi fayllarini saqlash uchun katalog yaratiladi va unga nom beriladi. Masalan, **BAZA** nomi beriladi. Instrumentlar panelida sozdat bazu dannix tugmasini bosing yoki **Fayl** menyusida **Sozdat...** buyrugini tanlang.

<Sozdaniye bazi dannix> dialog oynasi ochiladi, unga ism kiritish kerak (masalan, Adress) va ma’lumotlar bazasini saklash uchun katalogni (Baza) tanlash kerak. Ma’lumotlar bazasi bushliksiz sakkiztagacha belgiga ega bulishi mumkin.

Natijada ma’lumotlar bazasi oynasiga ega bo‘lamiz:




**2.1.5-rasm**

Ma’lumotlar bazasi oynasi ma’lumotlar bazasi ochilganda chikariladi. Undan jadvallar, formalar va ma’lumotlar bazasining boshka obyektlar ochiladi.

Ma’lumotlar bazasining oynasi kuyidagi elementlarga ega:

*Sarlavxa satri.* Ochilgan MB ismini chikaradi.

*Tugmalar.* «Sozdat», «Otkrit», «Konstruktor» va x.k.z. Tugmalar ma’lum oynada va rejimda obyektni ochadi.

*Obyektlar oynalari.* (obyektlarni tanlash yarliklari). «Tablitsa», «Forma» va x.k.z. Obyektlar tugmalari ochilish yoki uzgarishi mumkin bulgan obyektlar ruyxatini chikaradi.

*Obyektlar ruyxati.* Foydalanuvchi tanlaydigan obyektlar ruyxatini chikaradi. Bizning variantimizda ruyxat xali bo‘sh. Ma’lumotlar bazasini ishlab chikish ishini bevosita boshlashdan oldin MB ba’zi bir asosiy obyektlarning tavsiflariga tuxtaymiz.

*Tablitsa* – bu ma’lumotlarni yozuv (satr) lar va maydon (ustun)lar kurinishida saklovchi obyekt. Odatda xar bir jadval bitta anik masala buyicha ma’lumotlarni saklash uchun ishlatiladi.

*Zapros* – kerakli ma’lumotlarni bitta yoki bir nechta jadvaldan olish imkonini beradi.

*Forma* – asosan ma’lumotlarni kiritish uchun ishlatiladigan Microsoft Access obyekti. Formada jadval maydonlaridagi ma’lumotlarni kiritish, tasvirlash va uzgartirishda ishlatiladigan boshkarish elemetlarini joylashtirish mumkin.

*Otchetlangan jadval.* – ma’lumotlarni chop etish uchun muljallangan Microsoft Access Ma’lumotlar bazasi obyekt.

Jadvalni yaratishdan boshlash kerak.

Jadvalda ma’lum tur, masalan mijozlar yoki tovarlar ruyxatining, ma’lumotlarini saklovchi yozuv saklanadi. Jadvalning asosiy kismi maydon buladi.

*Maydon* – bu ma’lum bir turdagi, masalan, xodimlar familiyasi, ma’lumotlarga ega bulgan jadval elementi. Jadval rejimida maydonni ifodalash uchun ustun yoki yacheyka ishlatiladi, bu xolda maydon ismi jadval ustuni sarlavxasi buladi.

*Yozuv* – ma’lum obyekt xakidagi ma’lumotlarning tula tuplami. Jadval rejimida yozuv satr kurinishida tasvirlanadi.




**2.1.6-rasm**

Hosil bo‘lgan ma’lumotlar bazasi oynasidan Tablitsi obektini faollashtiramiz va Sozdat tugmasini sichqonchaning chap tugmasi bilan bir marta bosib, yangi oyna hosil qilamiz (2.3.3- rasm).




**2.1.7-rasm** jadval hosil qilishning besh xil usuli keltirilgan.

Rejim tablitsi - ma’lumotlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri jadvalga kiritish yo‘li. Bu usul bilan Sozdaniye tablitsi putyom vvoda dannix usuli bir xildir.

Konstruktor - bu usul yordamida jadvalning har bir maydoni alohida loyihalashtiriladi, ya’ni maydon nomi, maydondagi ma’lumotning turi va maydonga berilgan izoh aniqlanadi. Bu usul jadval qurishning eng qulay usuli bo‘lib, asosan undan foydalaniladi. Bu usul bilan Sozdaniye tablitsi v rejime konstruktora usullari bir xildir.

Master tablits. - bu usul tanlanganda Access bizga bir qator oldindan tuzilgan jadvallarning ro‘yxatini va ularga mos maydonlaming ro‘yxatini taklif etadi. Biz hosil qilayotgan ma’lumotlar bazasiga qarab bu ro‘yxatdan o‘zimizga keragini tanlab olishinmiz mumkin. Bu usul bilan Sozdaniye tablitsi s pomoshyu mastera usullari bir xildir.

Import tablits - bu usulda biz boshqa ma’lumotlar bazasidan

(boshqa fayldan) tayyor jadvalni ko‘chirib olishingiz (import qilishingiz) mumkin.

Svyaz s tablitsami - bu usul tanlanganda boshqa ma’lumotlar bazasidan (boshqa fayldan) biror jadvalni (jadvallarni) joriy fayl bilan bog‘lashimiz (import qilishimiz) mumkin.

Biz “ **Aholi turmush darajasini oshirishnin**g ma’lumotlar bazasini yaratish” mavzusi asosida jadval yaratishning eng oson va qulay usuli konstruktor rejimidan foydalanamiz. Bu rejim jadvalni o‘zimiz hoglagandek loyihalashga va yaratishga imkon beradi. Rasmdagi muloqot oynasidan konstruktor holatini tanlab Ok tugmasini bosamiz. Natijada yangi muloqot oynasi ochiladi .




**2.1.8-rasm**

Muloqot oynasi ikki qismdan iborat bo‘lib, yuqori qismi jadval maydonlarini aniqlash uchun, pastki qismi esa har bir maydonning xossasini (Svoystvo polya) aniqlash uchun mo‘ljallangan. Pastki qism jadval maydoniga nom berilmagan holatda passiv xolatda bo‘ladi, nom berilganda faollashadi.

“Aholi ro‘yxati” jadvalini yaratish uchun “ Aholi ro‘yxati ” mohiyatining mantiqiy loyihasi keltirilgan  Jadvalni loyihalab bo‘lganimizdan so‘ng uni “ Aholi ro‘yxati” nomi bilan saqlaymiz.

Shu tariqa “Aholi ro‘yxati”, “ishlab chiqarish korxonalari va Aholi joylashgan xududlar”, “iqtisodiy va texnologik muammolari ro‘yxati iqtisodiy va texnologik muammolari ro‘yxati”, “loyihalar”,“ loyiha bajarilishi uchun ma’sul Aholi”, “loyiha bajarilishida ishtirok etuvchi mutaxassislar” mohiyatlarining mantiqiy loyihalari asosida ularning jadvallarini yaratib olamiz.

Jadvallarni yaratib olganimizdan so‘ng unga ma’lumotlarni kiritish lozim bo‘ladi. Jadvallarga ma’lumotlarni kiritishdan oldin esa ular orasidagi aloqalarni o‘rnatib olishimiz, keyin esa ma’lumotlarni kiritishimiz maqsadga muvofiq.

Jadvallar orasidagi aloqalarni o‘rnatish deganda asosiy jadvallar bilan ma’lumotli jadvallarni bog‘lash tushuniladi. Bizda asosiy jadvallar “Aholi ro‘yxati” va “Ishlab chiqarish korxonalari va Aholi joylashgan xududlar” va “Iqtisodiy va texnologik muammolari ro‘yxati iqtisodiy va texnologik muammolari ro‘yxati” jadvallari, qolgan jadvallar esa ma’lumotli jadvallar hisoblanadi.

Asosiy va ma’lumotli jadvallar orasidagi aloqalarni o‘rnatishni “Aholi ro‘yxati” jadvali va “Loyihaga ma’sul tashkilot” jadvallarini bog‘lashda ko‘rib o‘tamiz.

“Aholi ro‘yxati” jadvalini konstruktor rejimida ochamiz, guruh maydonini tanlaymiz. Bu maydonning ma’lumotlar tipi bo‘limiga o‘tganimizda yangi ro‘yxat ochiladi. Ulardan master podstanovokni tanlaymiz. Natijada yangi muloqot oynasi ochiladi .




**2.1.9-rasm**

Bu oynada belgilangan bo‘limni tanlab Daleye tugmasini bosamiz. Natijada yangi oyna ochiladi ( 2.1.9 - rasm).




2.1.10-rasm

2.1.10-rasmdagi oynadan “Loyihaga ma’sul tashkilot” jadvalini tanlaymiz va Daleye tugmasini bosamiz. Natijada yangi Sozdaniye podstanovki oynasi hosil bo‘ladi (2.1.11-rasm).




2.1.11-rasm

Bu oynaning Dostupniye polya qismida Loyihaga ma’sul tashkilot jadvalining maydonlar nomlari hosil bo‘ladi. Undan ,barcha bo‘limini tanlaymiz va  ni bosib Vibranniye polya qismiga o‘tkazamiz. Daleye tugmasini bosib keyingi oynaga o‘tamiz. Bu oynada ma’lumotlarni o‘sish bo‘yicha tartiblaymiz va Daleye tugmasini bosib keyingi muloqot oynasiga o‘tamiz

Bu oynada loyihaga ma’sul tashkilot jadvaliga kiritilgan maydonlar paydo bo‘ladi. Daleye tugmasini bosib keyingi oynaga o‘tamiz, u oynadan Gotovo  tugmasini bosib, ishni yakunlaymiz.

Asosiy va ma’lumotli jadvallarni bog‘lashdan asosiy maqsad, asosiy jadvallarni to‘ldirishda ma’lumotlarning ko‘p takrorlanishining oldini olish, jadvalga ma’lumotlarni kiritishni osonlashtirish va

ma’lumotlarning kompyuter xotirasidan kam joy egallashidir.

Jadvallarni loyihalab olganimizdan so‘ng, keyingi ish unga ma’lumotlarni kiritishdir. “Aholi ro‘yxati” jadvaliga ma’lumotlarni kiritishni ko‘rib o‘tamiz.

Aholi ro‘yxati to‘g‘risidagi ma’lumotlar markazda MS Word dasturida bo‘lib, oddiy jadval ko‘rinishida tasvirlangan. Bu jadvalga ishlov berib uni oddiy matn ko‘rinishida o‘tkazib oldik. Jadvalda Aholi ro‘yxati haqidagi boshqa ma’lumotlarni avtomatik kiritib oldim. Tayyor bo‘lgan ma’lumotlarni MS Accessga qo‘yidagicha jadval hosil bo‘ldi

Ikkinchi asosiy jadvalimiz “Iqtisodiy va texnologik muammolari ro‘yxati iqtisodiy va texnologik muammolari ro‘yxati” jadvali bo‘lib, bu jadval asosan korxona va Aholi muammolari, adreslari, raxbarlari, ma’sul shaxslari, tegishli kafedralar keltirilgan ushbu jadvallarini yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek bog‘lab olamiz. Bog‘langan jadvallarni 2.1.12-rasmda ko‘rishimiz mumkin.




**2.1.12-rasm**

Bu bo‘limda jadvallarni loyihalashni, asosiy va ma’lumotli jadvallarni bog‘lashni ko‘rib o‘tdik. Jadvallardan kerakli ma’lumotlarni ajratib olishni keyingi bo‘limlarda ko‘rib o‘tamiz.

## 2.2 Aholining tarkibi nomli jadvallari asosida so‘rovlar yaratish.

Jadvallarni loyihalash, unga ma’lumotlarni kiritish va jadvalga tegishli ba’zi bir tushunchalar bilan tanishdik. Jadvalga ma’lumotlarni kiritish qanchalik qiyin bo‘lsa, undan kerakli ma’lumotlarni ajratib olish undan ham mushkul. Bu ishlarni amalga oshirish uchun Accessda so‘rov (zaprosi) obekti kiritilgan bo‘lib, u juda ko‘p imkoniyatlarga ega .




**2.2.13-rasm**

So‘rovlar yordamida bir necha jadvallardagi ma’lumotlarni ko‘rish, tahlil qilish va o‘zgartirish mumkin. Shuningdek, ulardan forma va hisobotlar uchun manba sifatida ham foydalaniladi. So‘rov ko‘pincha tanlash uchun ishlatiladi. Uning bajarilishi jarayonida tanlov shartlarini qanoatlantiruvchi ma’lumotlar bir yoki bir nechta jadvallardan (so‘rovlardan) tanlanadi va ma’lum tartibda aks ettiriladi. Accessda so‘rovlarning bir necha turi mayjud. So‘rovlarni hosil qilish uchun ma’lumotlar bazasi oynasidan so‘rov (zaprosi) bo‘limini tanlaymiz.

Hosil boʻlgan oynada Sozdat boʻlimini tanlab oynani hosil qilamiz. Bu oynada soʻrovlar hosil qilishning 5 ta usuli keltirilgan:




**2.2.14-rasm** Konstruktor - konstruktor yordamida soʻrov hosil qilish. Prostoy zapros - oddiy soʻrovlar hosil qilishning qulay usullaridan biri boʻlib, u  Sozdaniye zaprosa s pomoshyu mastera boʻlimi bilan bir xil.




**2.2.15-rasm**    Biz yaratilgan jadvallardan soʻrovlar hosil qilishda asosan  konstruktor xolatidan foydalanamiz.

Dastlab, soʻrovlar hosil qilishdan oldin bizga qanday maʼlumotlar kerakligini aniqlab olamiz.

Konstruktor yordamida soʻrovlarni hosil qilamiz. Soʻrovlar hosil qilishning eng qulay va umumiy usuli konstruktor usulidir. Bizga

ma’lumki, jadvallarni loyihalashda ham konstruktordan foydalanganmiz. So‘rovlani loyihalashda ham konstruktordan foydalanamiz.




**2.2.15-rasm**da tasvirlangan so‘rovni loyihalaymiz. Buning uchun 2.2.15-rasmdagi oynadan zaprosi obektini tanlaymiz. Bu oynadan Sozdat bo‘limini tanlaymiz. Natijada 2.2.16-rasmdagi muloqot oynasi paydo bo‘ladi. Joriy oynadan so‘rov hosil qilishning Konstruktor rejimini tanlaymiz va natijada yangi oyna hosil bo‘ladi (2.2.16-rasm).



**2.2.16-rasm**dagi muloqot oynasining Dobavleniye tablitsi oynasida yaratilgan jadvallarning ro‘yxati keltirilgan. Undan “Aholi nomi”, “Loyihada ma’sul tashkilot”, jadvallarini tanlaymiz va Dobavit tugmasini yoki sichqoncha chap tugmasini tez-tez ikki marta bosamiz. Natijada tanlangan jadval konstruktor qismining yuqori qismida paydo bo‘ladi. Bu jadvalning maydonlari ustiga sichqonchaning chap tugmasini ikki marta tez-tez bosib yoki maydon nomi ustiga sichqonchani bosib turgan holda so‘rov blankasiga sudrab o‘tkazamiz.



**2.2.17-rasm** Natijada "Aholi nomi, Loyihada ma'sul tashkilot bilan ishlash" jadvalining aniqlash maydonlari so'rov blankasida paydo bo'ladi. Bu maydonlardagi Aholi nomi topish uchun Like funksiyasidan foydalanamiz. Natijada quyidagi ko'rinishdagi so'rov hosil bo'ladi




2.2.18-rasm




2.2.19-rasm

**Mastera- mastera yordamida so‘rov hosil qilish.** Prostoy zapros – oddiy so‘rovlar hosil qilishning qulay usullaridan biri bo‘lib, u Sozdaniye zaprosa s pomoshyu konstruktor bo‘limi bilan bir xil. Mastera rejimini tanlaymiz va natijada yangi oyna hosil bo‘ladi (2.3.14-rasm).




2.2.20-rasmda bandida loyihaga ma’sul tashkilot bo‘limini tanlaymiz va unga tegishli maydonlar chiqadi. Ularni tegishlisini o‘tkazib olamiz. Sung daleye tugmasini bosamiz. Kerakli nom kiritib Gotovo tugmasini bosamiz. Natijada qo‘yidagicha zapros hosil bo‘ladi.




2.2.21-rasm

Shunga uxshash boshqa jadvallarini so‘rovlarini yaratish mumkin. Keyingi bo‘limlarda yaratilgan jadvallar va so‘rovlarga forlalar va hisobotlar yaratishni ko‘rib o‘tamiz.

**2.3. Aholi nomi jadvallari va so‘rovlari asosida formalar yaratish**

So‘rovlarni loyihalash, jadval va mavjud so‘rovlardan yangi so‘rovlarni hosil qilish bilan tanishdik. Jadvallar yordamida ixtiyoriy ko‘rinishdagi ma’lumotlarni hosil qilish va saqlashni bilamiz. Xuddi shuningdek, mavjud ma’lumotlardan keraklilarini so‘rovlar yordamida ajratib olishni ham ko‘rdik. Ammo jadvallarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’lumot kiritish va so‘rovlar yordamda ularni tahlil qilish foydalanuvchi uchun har doim ham qulay emas, ayniqsa, MS Access bilan tanish bo‘lmagan foydalanuvchilar uchun ma’lum noqulaychiliklar paydo bo‘ladi. Ma’lumotlar bazasidan foydalanishda formaning roli beqiyosdir. Umuman, formalar ma’lumotlarni kiritish va ularni foydalanuvchiga qulay ko‘rinishda tasvirlash uchun ishlatiladi.

Formalarni biz hayotda ko‘p uchratganmiz. O‘qish jarayonida biror bir so‘rovnomani (anketani) to‘ldirishga to‘g‘ri kelgan, o‘qishga yoki ishga kirish jarayonida shaxsiy varaqalar to‘ldirganmiz. Shularning o‘zi formadir. Forma shu ko‘rinishdagi elementlardan tashkil topgan bo‘ladi. Elementlarning soni nechta bo‘lishi odatda, qo‘yilgan masalaga va formani tuzuvchisiga bog‘liq.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, formani jadval yoki so‘rov uchun qurish mumkin. Formani qurish uchun ma’lumotlar bazasi oynasidan (2.3.2-rasm) forma obektini tanlaymiz. Bizda hozircha forma bo‘lmagani uchun bu oyna bo‘sh. Bu oynadan Sozdat bo‘limini tanlaymiz. Natijada, 2.3.16-rasmdagi muloqot oynasi paydo bo‘ladi. Mazkur oyna ikki qismdan iborat bo‘lib, uning yuqori qismida formani nima yordamida qurish tanlansa, pastki qismida esa nimaga (jadval yoki so‘rovga) qurish tanlanadi. Bu qismdagi ochiluvchi menyuda ma’lumotlar bazasidagi barcha jadval va so‘rovlarning ro‘yxati keltiriladi.

Forma qurishning eng oson yo‘li bu Master formadir. Yuqorida belgilab olingan formalarni loyihalaymiz. Buning uchun Master formni va “Aholi nomi” nomli jadvalni tanlaymiz. OK tugmasini bosib keyingi muloqot oynasiga o‘tamiz 2.3.22-rasm




2.3.22-rasmdagi oynaning Dostupniye polya bo‘limida “Aholi nomi” jadvalining mavjud maydonlari ro‘yxati keltirilgan. Bu ro‘yxatdan kerakli maydonlar: maydonlarini  tugmani bosish bilan Vibranniye polya bo‘limiga o‘tkazamiz. Daleye tugmasini bosib keyingi oynaga o‘tamiz (2.3.17-rasm).




2.3.23-rasmda yaratilayotgan formaning tashqi ko‘rinishini tanlaymiz, bizda v odin stolbets ni tanlaymiz. Daleye tugmasini bosib keyingi oynaga o‘tamiz 2.3.24-rasm




2.3.24-rasm

Bu rasmda yaratilayotgan formaning ko‘rinish stili tanlanadi, biz Chertej ni tanlaymiz.




2.3.25-rasm

Daleye  tugmasini bosib keyingi oynaga o‘tamiz va yaratilayotgan formaga “Aholi nomi formasi” nomini berib saqlaymiz.




2.3.26-rasm

Tayyorlangan forma dastlab ustun koʻrinishida nomoyon boʻladi. Uni oʻzimiz xoxlagandek koʻrinishga keltirib olishimiz uchun formani uskunalar panelidan yoki Vidsidan Konstruktor rejimiga oʻtamiz va tegishli oʻzgartirishlarni amalga oshirib formani oʻzimiz xoxlagan koʻrinishga keltirib olamiz .




2.3.27-rasm

Biz bu bo‘limda yaratilgan jadvallar va so‘rovlar asosida formalarni loyihalashni va formalarga qo‘shimcha ma’lumotlar kiritishni, tegishli o‘zgartirishlar kiritishni va formalar yaratishni ko‘rib o‘tdik.




2.3.28-rasm

Yaratilgan formalar foydalanuvchilar uchun qulay interfeysga ega bo‘lib, ularda ishlash foydalanuvchilar uchun ko‘p qulayliklarga ega.

**Aholi nomi bo‘yicha xisobotlarni loyihalash va tayyorlash.** Bu bo‘limda Bitiruv malakaviy ishining asosiy qismi amalga oshiriladi. Yani, yaratilgan jadvallar va so‘rovlar asosida hisobotlar tayyorlanadi. Dastlab yaratiladigan hisobotlarni aniqlab olamiz. Asosiy hisobot Aholi nomi, loyihada ma’sul tashkilot bo‘yicha hisobotlarni tayyorlash lozim.

MS Access ning eng kuchli tomonlaridan biri hisobotdir. Uning yordamida ma’lumotlarni qulay va foydalanuvchiga tushunarli ko‘rinishda tayyorlash va chop etish mumkin.

Jadvallar yoki so‘rovlar yordamida tayyorlangan jadvallarni chop etishda ularga har xil grafik obektlarni qo‘yish imkoniga ega emasmiz. Bu ishni hisobot yordamida soddagina amalga oshirish mumkin. Xuddi shuningdek, ma’lumotlarni guruhlarga ajratish va har bir guruh bo‘yicha ma’lum hisoblashlarni amalga oshirish mumkin.

MS Accessda hisobot tayyorlash uchun 2.3.28-rasmdagi oynadan Otcheti obektini tanlaymiz. Ochilgan oynadan Sozdat tugmasini bosib keyingi muloqot oynasini ochib olamiz 2.3.29-rasm




Mazkur oynaning yuqori qismida keltirilgan bo‘limlarning mazmuni quyidagicha:

Konstruktor - hisobotni konstruktor yordaraida qurish.

Master otchetov – hisobotni hisobot ustasi yordamida qurish. Bu holda formani master forma yordamida yaratish bilan bir hildir.

Avtootchet: v stolbets, Avtootchet: lentochniy, Bu holda hisobot yaratish uchun maxsus dastur (usta) ishlaydi.

Master diagramm - bu holda tanlangan jadval yoki so‘rovga diagramma (gistogramma, grafik va h.k.) quriladi.

Pochoviye nakleyki – hisobotlani eletron pochtadan yuborishga tayyorlash.

Master otchetov (Hisobotlar ustasi) yordamida Aholi nomi hisobotlarni loyihalaymiz.

Bu oynada Aholi nomi maydonidagi qiymatlarni Po vozrastaniyu (o‘sish bo‘yicha) tartiblashni tanlaymiz. Daleye tugmasini bosib keyingi oynaga o‘tamiz




2.3.30-rasm

Bu oynada hisobot maketi Stupenchatiyni va hisobot varag‘i albomnayani tanlaymiz, Daleye tugmasini bosib keyingi oynaga o‘tamiz. Unda hisobotning ko‘rinish stilini tanlaymiz va hisobotni saqlaymiz. Gotovo tugmasini bosib hisobotni ko‘rishimiz mumkin. U dastlab tushunish qiyin bo‘lgan xolatda bo‘ladi. 2.3.31-rasm




Aholi nomi ma’lumotlar bazasi dasturini ishga tushuramiz. Natijada

quyidagi ko‘rinishdagi oyna ochiladi.




2.3.31-rasm

Shunday qilib, bitiruv malakaviy ishining II bobida ma’lumotlar bazalari, ularning turlari, ma’lumotlar bazalarini boshqarish tizimlari, shu jumladan MS Access tizimi, MS Access tizimida ma’lumotlar bazasini loyihalash va yaratish texnologiyalari qo‘yilgan masala nuqtai nazaridan tahlil qilinib, umumlashtirilgan ma’lumotlar berildi.


Абдирахмонов Толибек_ Ахоли турмуш.doc [Режим ограниченной функциональности] - Microsoft Word
Microsoft Access
Файл Правка Вид Сервис Окно Справка
Введите вопрос
100%
Закрыть Установка
Ахолини демографик холатини узгариши
Ахолини демографик холатини узгариши
код Курсаткичлар 2003 й 2004 й 2005 й 2006 й 2007 й 2008 й
8 Кашкадарё вилояти б 1161 1199 1256 1301 1343 1396
1 Кашкадарё вилояти б 2336 2379 2419 2462 2506 2565
2 Кашкадарё вилояти б 579 587 595 606 614 1110
3 Кашкадарё вилояти б 1757 1790 1824 1855 1892 1456
Готово
NUM
Вставить
Буфер обмена
Страница: 52 из 82
Число слов: 11 061
русский
100%
пуск
Total Commander 7.5...
Абдирахмонов Толи...
Ахоли турмуш дара...
Ахолини демографи...
EN
18:17

# III-bob. Koson tuman aholi turmush darajasini oshirish yullari

## 3.1. Koson tuman aholisining turmush sharoiti va hozirgi holatining statistik tahlili

Koson tuman misolida qishloq aholisining turmush sharoiti va ijtimoiy holatini tahlil qilishda ana shu tamoyillardan foydalanishning ayrim jihatlarini koʻrib chiqilgan.

Qishloq aholisining turmush sharoitiga aholi joylashuvi va xizmat koʻrsatish sohalarini e’tiborga olingan, bunda qishloq aholisi turmush sharoitini yaxshilashda, eng avvalo, uning yashab turgan hududi alohida oʻrin tutadi.

Aholiga xizmat koʻrsatish soxalarining rivojlanishi, albatta, aholining talab va ehtiyojlariga qarab oshadi, ammo taklif qilish jarayoni talab darajasida emas. Qishloq aholisiga xizmat koʻrsatish sohalari qay darajada boʻlishi mehnat unumdorligi oshishi yoki pasayishiga asosiy omil sifatida namoyon boʻlmoqda. Qishloq aholisi turmush sharoitini oshirishda, avvalambor, qishloqlarda qishloq xoʻjalik mahsulotlarini qayta ishlovchi kichik korxonalar, oʻz-oʻzini ta’minlaydigan elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi qurilmalar qurish lozim. Bular, oʻz navbatida, aholini ish bilan ta’minlaydi, xizmat koʻrsatish sohalarini rivojlantirishga katta ta’sir koʻrsatadi, qishloq aholisining bandligini ta’minlaydi va ishlashga boʻlgan gʻayratini yanada oshiradi.

**3.1.1 –jadval**

**Koson tumanining ma’muriy hududiy boʻlinishi**

| | **Tashkil topgan vakti** | **Tuman markazi** | **Karshi shaxrigacha bulgan masofa (km)** | **doimiy axoli soni 01.01.14 y** | **Shundan** | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | **shaxar** | **kish-lok** |
| Koson | 29.09.26y | Koson | 30 | 250,1 | 129,3 | 120,8 |

Koson tumanida 250,1 ming kishi istiqomat qildi. Aholi soninging oʻsishi 2013 yilda 1,9 foizni tashkil etgani holda  Kosonda shaxar

joylarida aholi oʻsishining yanada yuqoriroq koʻrsatkichlari kuzatilyapti. Qishloq aholisi 120,8 ming kishini tashkil qilyapti .

Tumanda aholisi oʻsish darajasini optimallashtirishda shahar bilan qishloq oʻrtasidagi tafovutlarni e’tiborga olish zarur.

Tumanda oilalar tuzilmasi yuqori darajadagi boqimandalik koʻrsatkichi bilan tavsiflanadi, zero, oiladagi bir nafar ishlaydigan a’zoga shahar joylarida oʻrtacha 2,8 nafar, qishloq joylarida esa 3,4 nafar ishlamaydigan a’zo toʻgʻri keladi. Eng yuqori darajadagi boqimandalik koʻrsatkichi tarkibida bir nafar ishlaydigan a’zoga oʻrtacha 4 nafar tobe a’zo (ulardan 3,5 nafari bolalar) toʻgʻri keladigan kam daromadli oilalarda qayd etilmoqda. Aholining 55,1 foizi mehnatga layoqatli yoshdagilar guruhiga mansub boʻlib, 39 foizi mehnatga layoqatli yoshdan kichik yoshdagilar, 5,9 foizi shu yoshdan katta yoshdagilardir.

Aholining Qashqadaryo hudud boʻyicha taqsimlanishi nomutanosibdir. Eng katta qismi aholi nisbatan gavjum boʻlgan sharqiy Qashqadaryoda yashaydi. Undan kichikroq, ammo nisbatan salmoqli qismi - boshqa hududlarga qaraganda kam ta’minlangan markaziy Qashqadaryoda istiqomat qiladi. Eng kam aholi gʻarbiy Qashqadaryoda yashaydi va Tumanning ushbu qismida istiqomat qilayotgan odamlarning aksariyati Muborak tumanida jamlangan.

**3.1.2 –jadval**

**Koson tumanida iktisodiyot tarmoklarida ishlovchilarning dekabr oyidagi urtacha ish xaki (kichik biznes va kishlok xujaligisiz)**

**(sum)**

| | **2010 Yil** | **2011 yil** | **2012 yil** | **2013 yil** |
|---|---|---|---|---|
| Koson | 585620 | 698579 | 870269 | 923465 |




3.1.32-rasm

Tumandagi mehnat resurslari soni 923465 nafar kishini tashkil qiladi. Aholining 60 foizi qishloq joylarida yashasada, qishloq xoʻjaligining yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi atigi 30 foizni tashkil qiladi.

Mazkur sohaning aholini ish bilan bandligini ta’minlash va yalpi ichki mahsulotni yaratish borasida muhim ahamiyat kasb etishiga qaramay, qishloq xoʻjaligiga yoʻnaltirilayotgan sarmoyalarning umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi hali ham juda kichik miqdorni (taxminan 5 foizni) tashkil qilmoqda. Irrigatsiya va drenaj tizimlariga ajratilayotgan investitsiyalar miqdorining yetarli darajada emasligi qishloq xoʻjaligi sohasidagi keyingi oʻsishga jiddiy toʻsqinlik qilmoqda.

**3.1.3-jadval**

**Koson tumanida mehnat resurslaridan foydalanish holati**

| № | Shahar va tumanlar | 2011 yil holatiga aholi soni | | Ishlayotgan o‘smirlar va pensioner-lar soni | Iqtisodiy faol aholi | Iqtiso-diyotda band aholi soni | Jami ishsiz-lar soni |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Shahar (m.kishi) | Qishloq (m.kishi) | m.kishi | m.kishi | m.kishi | m.kishi |
| | **Tuman bo‘yicha** | **1203,9** | **1573,9** | **7564,0** | **990,5** | **940,2** | **50,1** |
| 1 | Koson | 123,3 | 116,4 | 650,0 | 76,7 | 73,5 | 4,5 |




3.1.33-rasm

Tumanda, asosan, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga e’tibor qaratilyapti. Umuman olganda, Tumanda nafaqat gaz sanoati va paxta bilan bog‘liq sohalar, balki butun iqtisodiyotni har tomonlama rivojlantirish va ichki bozor uchun xalq iste’moli mollari ishlab chiqarish sektoriga ko‘proq e’tibor berilyapti.

Tumanda amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan strategiyalardan quyidagi yo‘nalishlar e’tiborga loyiq: qishloq xo‘jaligi, ishlab chiqarish va zamonaviy xizmatlar ko‘rsatish sohalari. Tumanni bir-biridan farq qiladigan uchta ijtimoiy-iqtisodiy hududga bo‘lish mumkin:

Tumanning boshqa qismlari iqtisodiy-ijtimoiy ko‘rsatkichlari hamda aholining turmush darajasini ko‘tarishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Zero, bu yerda Tumanning boshqa joylarida yashab, mazkur tumanda mahalliy sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarida ishlashi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha migrantlarni ish bilan ta’minlash imkoniyatlari mavjud. Shuningdek, mazkur hudud davlat byudjetiga nisbatan donor vazifasini bajaradi, chunki gaz uchun renta to‘lovining 97 foizi va gaz sanoatida band bo‘lganlar tomonidan to‘lanayotgan daromad solig‘ining (ya’ni, katta miqdordagi mablag‘) 50 foizi davlat byudjetiga o‘tkaziladi. Ana shu soliqlarning Tumanda qoladigan qismini biroz bo‘lsa-da ko‘paytirish orqali katta miqdordagi resurslarni bo‘shatib olish imkoni qo‘lga kiritiladi. Ushbu resurslarni Tumanning eng kam ta’minlangan hududlarida maxsus dasturlarni amalga oshirishga yo‘naltirish yoki Tumanning boshqa joylarida aholi bandligini yaxshilashga reinvestitsiya qilish mumkin bo‘ladi.

Olib borilgan kuzatuv natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, kam ta’minlanganlar toifasiga tushib qolish havfi qishloq joylarida yashovchi aholi uchun ancha yuqori (28,8 foiz, taqqoslash uchun: shaharda- 17,9 foiz). Koson tumanida kam ta’minlanganlarning aksariyati (74 foiz) qishloq joylarida istiqomat qiladi. Shu bilan birga, boshqa Tumanlarda singari Koson tumanida ham kichik shaharlarda yashovchi fuqarolar uchun kam ta’minlanganlar toifasiga tushib qolish havfi juda yuqori ekanligini tasdiqlovchi holatlar mavjud. Ushbu tadqiqotdan ma’lum bo‘ldiki, kichik shaharlarda yashovchi odamlar uy xo‘jaliklarida yerdan foydalanish imkoni yo‘qligi va ularning qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq bo‘lmagan sohalarda band bo‘lishi sababli ular uchun kam ta’minlanganlar toifasiga tushib qolish xavfi ko‘p hollarda qishloq joylarida istiqomat qilayotgan odamlarnikidan ko‘ra ancha yuqori.

**3.1.4-jadval**

**Koson tumanida aholi ta’minoti**

| № | Shahar va tumanlar nomi | Aholi ta’minoti | | | | | | Xar 100 ming kishiga nis-batan kasal-langan-lar soni | Xar 1000 kishi-ga nis-batan nogi-ronlar soni |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 1 kishiga to‘g‘ri keladigan uy-joy (kv.m) | Xar 10 ming kishiga nisbatan kasalxona o‘rinlari | Xar 10 ming kishiga to‘g‘ri keladigan ambulatoriya polik-linika muassasa-lari | 1 sme-nada o‘quvchilar (%) | Ichim-lik suvi bilan ta’minlan-ganlik dara-jasi, (%) | Tabiiy gaz bilan ta’minlan gan-lik daraja-si, (%) | | |
| 5 | Koson | 7,7 | 33,0 | 1,3 | 64,5 | 84,4 | 62,1 | 4170,4 | 1,2 |



3.1.34-rasm

Elektr energiya, gaz va suvdan nooqilona foydalanish darajasini pasaytirish va ularni iqtisod qilishni rag‘batlantirish lozim. O‘zbekiston – dunyoda energiya resurslarini iqtisod qilish borasida eng past ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan mamlakatlardan biri, iqtisodiyotning energiya sarf qilishlik darajasi esa yalpi ichki mahsulotga nisbatan hisoblaganda jahondagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan ikki baravar yuqori. Bunday holat texnologiyalar eskirganligi, yangi investitsiyalar miqdorining cheklanganligi hamda ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar energiyani tejash borasida yetarlicha rag‘batlarga ega emasliklari bois ro‘y bermoqda. Aslida mamlakat hamda Tumanda iqtisodiy o‘sish va aholi turmush darajasiga zarar yetkazmagan holda elektr energiya sarfini 40-50 foizga kamaytirish mumkin (BMTTD 2007 y)[6]. Uy xo‘jaliklari tomonidan sarflanayotgan elektr energiya umumiy raqamning atigi 14 foizini tashkil qiladi .

---

[6] “Ўзбекистонда энергетика ислоҳотларини давом эттириш варинатлари”, Стратегия резюмеси п.1 (8), 2007. БМТ ТД, Ўзбекистон.

## 3.2. Koson tumani aholi turmush darajasini oshirishda kam ta’minlanganlar bilan ishlash.

Resurslarni tejashga qaratilgan eng katta hajmdagi ishlar sanoat sohasi, shu jumladan, energetika tarmog‘ining o‘zida bajarilishi lozim bo‘lgan bir paytda tejamkorlik siyosatini oilalar darajasida ham amalga oshirish maqsadga muvofiq. Sug‘orish suvlari haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, irrigatsiya uchun ajratiladigan suv resurslaridan noratsional tarzda foydalanilmoqda, drenaj tizimlari va irrigatsiya tarmoqlariga xizmat ko‘rsatish sohasi esa yetarli darajada moliyalashtirilmayapti. Shu bois qishloq xo‘jaligida suv sarf qilishlik darajasini pasaytirish va suv resurslaridan foydalanish tizimi boshqaruvni yaxshilash zarurati yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Bunga suvdan foydalanuvchilar uyushmalarini (SFU) yanada rivojlantirish orqali erishish mumkin.

Koson tumani elektr energiyasi, gaz va suv ta’minotidagi beqarorlikdan zarar ko‘rib kelmoqda.

Uy xo‘jaliklari byudjeti kuzatuvi va tumanda o‘tkazilgan keyingi tadqiqotlarning respondentlarni tanlash uslubi har bir tuman uchun alohida kam ta’minlanganlik ko‘rsatkichlarini hisoblash imkonini bermaydi.

Ichimlik suvi, tabiiy gaz va elektr energiyasi ta’minoti sohasida mavjud tizimlarning beqaror ishlashi aholi turmush darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ta’minotdagi bu uzilishlar mahalla a’zolari tomonidan ustuvor muammo sifatida ta’riflanmoqda. Kam ta’minlangan va kam ta’minlamagan uy xo‘jaliklari o‘rtasida kommunal xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari borasida keskin farq yo‘q, zero, kam ta’minlanganlar ham, kam ta’minlanmaganlar ham mavjud infratuzilmaning o‘ta eskirganligidan bir xil zarar ko‘rishmoqda. Shu bilan birga, kam ta’minlangan uy xo‘jaliklari o‘z oldida turgan kommunal muammolarni boshqacha tarzda, masalan, ichimlik suvi yoki boshqa turdagi yoqilg‘ini sotib olish yo‘li bilan to‘liq bartaraf etish imkoniyatlariga ega emas. Yuqori daromadli oilalar, xonadonlarni isitish uchun zarur bo‘lgan ko‘mir yoki toza ichimlik suvini sotib olishlari mumkin, ammo kam ta’minlangan oilalar har doim ham bunga qodir emas. Shuningdek, elektr energiyasi ta’minotidagi uzilishlar sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalariga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Sog‘liq uchun xavfsiz ichimlik suvi, elektr energiyasi va tabiiy gaz ta’minotining soz holatdagi tizimlaridan foydalanish imkoniyatlarining

cheklangani aholi turmush darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu omillar, bir tomondan, aholining, ichimlik suvi va isitishning muqobil manbalaridan foydalanish imkoniga ega bo‘lmagan kam ta’minlangan oilalarning turmush sharoitlariga, ikkinchi tomondan esa, sog‘liqni saqlash tizimidagi muassasalar va maktablar ishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmayapti.

Mavjud holatlar tahlili shundan dalolat bermoqdaki, kam ta’minlanganlikning umumiy darajasi nisbatan pasayib borgan bo‘lsa-da, turli hududlarda joylashgan uy xo‘jaliklarining pul daromadlari miqdori o‘rtasidagi tavofutlar saqlangan.

Xuddi shu tariqa kam ta’minlanganlar va kam ta’minlanmaganlar uchun ishsiz mavqeiga ega bo‘lish ehtimoli borasida ham minimal tafovutlar bor. Ko‘rinib turibdiki, bunda bandlik mavqei emas, balki bandlikning turi yoki sifati muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, kam ta’minlanganlarning aksariyati uy xo‘jaligi bilan band bo‘lishsa-da, ularning olgan daromadi kam ta’minlanganlikdan saqlab qololmaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatyaptiki, kam ta’minlanganlarning aksariyati kam maosh to‘lanadigan ishlar va mavsumiy faoliyat turlari bilan shug‘ullanishadi. Masalan, o‘z oilalariga tegishli tomorqada qisman band bo‘lishadi yoki qishloq xo‘jaligi sohasidagi vaqtinchalik, mavsumiy ishlarga jalb qilinishadi, yoxud qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq bo‘lmagan sektorda mayda savdo bilan shug‘ullanishadi. Qishloq joylarida bandlik ko‘rsatkichlarining biroz o‘sishi kuzatilmoqda. Zotan, u yerda bog‘ va tomorqalarda ish topish imkoniyatlari mavjud, ammo kichik shaharlarda bandlik darajasi odatdagidan nisbatan past.

Shu bilan birga, o‘z yer maydonlarida qisman band bo‘lgan odamlar ham ish bilan band bo‘lganlar toifasiga kiritilgan. Mehnat bilan band aholining 18 foizi kichik dehqon xo‘jaliklarida mehnat qilishadi, ularning yarmidan ko‘pi o‘zlarini ishsiz, deb hisoblashadi. Agar ular ishsizlar toifasiga kiritilsa, ishsizlik darajasi 14,6 foizgacha ko‘tarilar edi. Kam ta’minlanganlar orasida hech qayerda ishlamayotgan va ish izlamayotgan, shu bilan birga, o‘quvchi ham, pensioner ham bo‘lmagan, mehnatga layoqatli yoshdagi odamlar bor, ularning aksariyati - ayollar.

Kam ta’minlanganlar va kam ta’minlanmaganlar band bo‘lgan sektorlar o‘rtasida hech qanday muhim tafovut yo‘q. Kam ta’minlanganlar toifasiga kirmagan uy xo‘jaliklari a’zolarining 54,2

foizi, kam ta’minlagan uy xo‘jaliklari a’zolarining esa 50,3 foizi qishloq xo‘jaligida ishlaydi. Qishloq xo‘jaligi sektoridan tashqari byudjet sektori (davlat xizmatchilari, maktab o‘qituvchilari, sog‘liqni saqlash muassasalarining xodimlari va hokazolar) eng yirik ish beruvchi hisoblanadi (band bo‘lganlarning 20 foizi ushbu sektorda faoliyat ko‘rsatadi), ammo bu sohada ham kam ta’minlangan va kam ta’minlanmagan uy xo‘jaliklari a’zolarining ishtiroki deyarli teng. Xususiy sektor bandlikning yirik manbasi bo‘lganicha yo‘q (ishchi kuchining 4-5 foizi), zero, unda band bo‘lgan ishchi kuchining miqdori hatto davlat muassasalaridagidan ham oz(9,5 foiz).

Qishloq xo‘jaligi sektori doirasida band bo‘lganlarning qariyb yarmi fermer xo‘jaliklarida yoki yollanma ishchilar sifatida yoxud oila a’zolari tomonidan fermerlik xo‘jaliklaridan ijaraga olingan yerlarda ishlashadi.

Fermer xo‘jaliklar o‘rtacha 16 nafar ishchini yollaydi, ulardan 5 nafari norasmiy ravishda. Ishlab chiqarish turlari bo‘yicha eng kam mehnat talab qilinadigan fermer xo‘jaliklar bog‘dorchilikka ixtisoslashgan xo‘jaliklardir (ular taxminan 8-9 kishini yollaydi), eng ko‘p mehnat talab qilinadigan fermer xo‘jaligi chorvachilik xo‘jaliklaridir (o‘rtacha 18-20 kishi). Fermer xo‘jaliklar sonining o‘sishi rasmiy bandlik darajasining pasayishiga olib kelmoqda. Chinonchi, ish joylarining barqarorligi avvalgiga nisbatan pastroq bo‘lib, ko‘proq mavsumiy ishlar vujudga keladi. Umuman olganda, bolali uy xo‘jaliklari bo‘yicha kam ta’minlanganlik ko‘rsatkichi bolalari yo‘q uy xo‘jaliklarinidan ko‘ra ikki baravar yuqori. Kam ta’minlanganlar va kam ta’minlanmaganlar oilalarining o‘rtacha kattaligi borasida biroz farq (tegishli ravishda 6 va 5 nafar oila a’zosi) mavjud, ammo uy xo‘jaliklarida bolalar, ayniqsa, 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar borligi kam ta’minlanganlar toifasiga tushib qolish havfini oshiradi (kam ta’minlangan uy xo‘jaliklarining 14,5 foizida 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar bor, kam ta’minlanmagan uy xo‘jaliklarining esa 12,4 foizida). Uy xo‘jaligida pensionerlarning mavjudligi, taxmin qilish mumkin bo‘lganidek, kam ta’minlanganlar toifasiga tushib qolish havfini oshirmaydi.

**3.2.5-jadval**

**Koson tumanda kam ta'minlangan va kam ta'minlanmagan uy xo'jaliklarining mehnatga layotqatli yoshdagi a'zolarining sektorlar bo'yicha bandligi**[7]

| ko'rsatkichlar | O'rtacha ko'rsatkich | O'ta kam ta'min-langan uy xo'ja-liklari | Kam ta'minlangan uy xo'jaliklari | Kam ta'minlanmagan uy xo'jaliklari |
|---|---|---|---|---|
| Qishloq xo'jaligida band bo'lganlar | 51,6 | 49,4 | 50,3 | 54,2 |
| Yollanma ishchilar | 19,2 | 18,6 | 18,5 | 20,3 |
| Fermer yoki dehqon xo'jaliklarida | 16,5 | 16,7 | 14,8 | 17,8 |
| Shirkatlarda | 2,7 | 1,9 | 3,7 | 2,5 |
| Oilaviy yer maydonlarida | 25,8 | 25,6 | 25,9 | 25,8 |
| Fermer yer maydonlarida | 7,7 | 7,0 | 7,9 | 8,1 |
| Dehqon yer maydonlarida | 18,1 | 18,6 | 18,0 | 17,7 |
| Shulardan o'zlarini ishsiz hisoblayotganlar | 9,6 | 10,8 | 10,1 | 8,1 |
| Vaqtinchalik mavsumiy ish | 6,6 | 5,3 | 5,9 | 8,1 |
| Qishloq xo'jaligidan tashqari sektorda | 48,5 | 50,6 | 49,7 | 45,7 |

[7] Комплексная стратегия социально-экономического развития и повышения благосостояния населения Кашкадарьинской области на 2009 – 2015 годы

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Yollanma ishchilar | 33,6 | 32,7 | 33,3 | 34,3 |
| Xususiy sektor | 4,1 | 4,3 | 4,8 | 3,4 |
| Byudjet sektori | 20,0 | 20,3 | 19,3 | 20,3 |
| Davlat korxonalari | 9,5 | 8,1 | 9,2 | 10,6 |
| Tadbirkorlar | 6,9 | 6,4 | 8,3 | 6,1 |

Aksincha, kam ta’minlanmagan uy xo‘jaliklarida yoshga doir pensiya oladigan pensionerlarning o‘rtacha ulushi kam ta’minlangan uy xo‘jaliklaridagi xuddi shu ko‘rsatkichga nisbatan sal yuqoriroq. Shu bois pensiyalar uy xo‘jaliklarini daromadlar miqdorining pastligi tufayli vujudga keladigan kam ta’minlanganlikdan saqlab qolishga yordam beradi. Mavjud ma’lumotlarning barchasi Tumanda keng tarqalgan to‘liqsiz bandlik mavjudligidan dalolat bermoqda, shunda odamlar juda past darajadagi mehnat unumdorligi bilan ishlashadi va oilalarning munosib

**3.2.6-jadval**

**Tumanda kam ta’minlangan va kam ta’minlanmagan uy xo‘jaliklari oilalarining tavsifi (kattaligi va tarkibi)[8]**

| ko‘rsatkichlar | O‘rtacha ko‘rsatkich | Juda kam ta’minlangan uy xo‘jaliklari | Kam ta’minlan-gan uy xo‘jaliklari | Kam ta’minlanmagan uy xo‘jaliklari |
|---|---|---|---|---|
| O‘rtacha kattaligi (a’zolar soni) | 6,0 | 6,7 | 6,1 | 5,4 |
| 7 yoshgacha bolalari bor oilalar ulushi | 14,7 | 17,5 | 14,5 | 12,4 |
| 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar ulushi | 36,2 | 38,9 | 36,7 | 33,4 |
| Mehnatga | 57,3 | 55,2 | 56,8 | 59,6 |

[8] Комплексная стратегия социально-экономического развития и повышения благосостояния населения Кашкадарьинской области на 2009 – 2015 годы

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| layoqatli yoshdagilar ulushi | | | | |
| Pensiya yoshidagilar ulushi | 6,5 | 5,8 | 6,5 | 6,3 |
| Juda keksa yoshdagi pensionerlar ulushi | 7,5 | 6,5 | 7,7 | 8,1 |
| Nogironlar ulushi | 1,6 | 1,5 | 1,7 | 1,6 |

turmush darajasini ta'minlash uchun yetarli miqdorda daromad keltirmaydigan, kam maosh to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanishga majbur. Oilalarning katta yoshdagi a'zolari o'zlari ishsiz qolishlariga yo'l qo'yisha olmaydi. Uy xo'jaligi- chorvani ko'paytirish, dehqonchilik bilan shug'ullanib, oila daromadini oshirishga harakat qilishadi.

Xizmatlar sohasining tabiatini  Qashqadaryo Tumani misolida aholiga maishiy va pullik xizmat ko'rsatish darajasini  tahlil qilish orqali, shahar yoki qishloq aholisiga xizmat ko'rsatish darajasining jon boshiga hisoblaganimizda xududlar o'rtasidagi tavofutlarda ko'rishimiz mumkin.

## 3.3. Qishloq aholisi turmush darajasini oshirishda mehnat resurslarining roli

Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitda xususan, iqtisodiyotning mintaqaviy tarkibini tubdan takomillashtirish, mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyatdan unumli foydalanish, avvalambor, qishloq joylarda aholining turmush sharoitidagi muammolarini hal qilish asosida turmush darajalarini yanada oshirish, iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida tarkibiy oʻzgartirishlar va iqtisodiyotni modernizatsiyalash siyosati mintaqalardagi boy meneral xom ashyo, tabiiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga asoslangan boʻlishi oʻta dolzarb masala hisoblanadi.

Shuningdek, choʻl zonalarida joylashgan mintaqalarni ijtimoy rivojlantirishning uzoq muddatli istiqbollarini ishlab chiqish ham mamlakat taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratilgan maqsadli dasturlarni tizimlashtirish, umumlashtirish va tahlil qilish natijalari iqtisodiyot va uning alohida sektorlari taraqqiyotiga daxldor qator maqsadli parametrlarni aniqlash imkonini beradi.

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti tomonidan Oʻzbekiston iqtisodiyotining uzoq muddatli strategiyasi ishlab chiqilgan. Undan kutilgan asosiy maqsad mamlakat aholisi turmush darajasini yuksaltirish uchun iqtisodiyotning barqaror va muttasil rivojlanishini taʼminlashdan iborat. Mazkur strategiya asosida Oʻzbekiston iqtisodiyoti uzoq muddatli istiqbolda rivojlanishining asosiy koʻrsatkichlari va variantlari bir necha holatda koʻrib chiqildi 3.2.5-jadval

Iqtisodiyotni oʻrta va uzoq muddatlarda rivojlantirishning maqsadli koʻrsatkichlari quyidagilar hisoblanadi:

- yalpi ichki mahsulotning oʻrtacha yiliga 8,9% oʻsishini taʼminlash;
- yalpi ichki mahsulotning ulushini 30 – 35% ga yetkazish;
- yalpi ichki mahsulotda xizmat koʻrsatish sohasi ulushini 50-55% ga yetkazish;
- oʻrtacha ish xaqini har uch yilda 2,5 marta oshirish;
- har yili kamida 600 – 700 ming yangi ish joylarini tashkil qilish.

Avvalambor, yetarli darajada rivojlangan mintaqalar, jumladan,

cho'l va cho'l oldi zonalari iqtisodiyotini jadal rivojlantirish hisobiga ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqni bosqichma-bosqich qisqartirishga erishish O'zbekiston mintaqalari strategiyasining asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilangan.

2008 – 2030 yillarda mamlakat mintaqalarida jon boshiga yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarishdagi farq darajasini 4,5 martadan 2,5 martagacha, sanoatda 10 martagacha, qishloq xo'jaligida 2,0 martagacha, mahsulotlar eksportida 12 martagacha, xizmat qo'rsatishda 5 martagacha, pul daromodlarini 3 martagacha kamaytirish nazarda tutilgan.

Eng asosiy maqsad– bu, cho'l zonalarida yashayotgan va faoliyat ko'rsatayotgan aholi turmush darajasini oshirish, uni yangi sifat darajasiga olib chiqish, salbiy iqlim va ekologik oqibatlarni keskin kamaytirishdan iborat[9].

**2.3.1-jadval**

**O'zbekiston iqtisodiyoti uzoq muddatda rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari va variantlari, foiz [10]**

| Ko'rsatkichlar | 2007 yil | Rivojlantirish variantlari | Prognoz | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | 2010 y. | 2015 y. | 2020 y. |
| YAIMning o'sish darajasi | 9,5 | I | 5,7 | 5,5 | 5,0 |
| | | II | 7,2 | 7,3 | 7,4 |
| | | III | 8,3 | 9,0 | 9,5 |
| | | IV | 8,8 | 13,2 | 13,0 |
| Sanoatning o'sish darajasi | 12,0 | I | 6,0 | 5,8 | 5,7 |
| | | II | 9,0 | 9,6 | 11,0 |
| | | III | 11,5 | 12,0 | 13,0 |
| | | IV | 12,0 | 13,0 | 15,0 |
| Qishloq xo'jaligining o'sish darajasi | 5,0 | I | 4,0 | 3,5 | 3,0 |
| | | II | 4,8 | 4,6 | 4,5 |
| | | III | 6,1 | 6,2 | 6,2 |
| | | IV | 6,9 | 7,0 | 7,0 |

---

[9] Маматқулов А. Минтақаларни барқарор ривожлантириш стратегияси . // Иқтисодиёт ва таълим. -2009. -№6. – 6 б.

[10] Второе национальное сообщение Республики Узбекистан по рыночной Конвенции ООН об изменение климата, г.Ташкент, 2008 г

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Xizmatlarning o‘sish darajasi | 12,5 | I | 8,2 | 8,0 | 8,0 |
| | | II | 7,4 | 10,0 | 10,5 |
| | | III | 13,1 | 14,0 | 15,0 |
| | | IV | 13,1 | 15,0 | 16,0 |

Aholi daromadlari darajasi bilan o‘lchanmaydigan shunday xizmatlar ham borki, bugungi hayot tarzini ularsiz tasavvur qilish qiyin. Ijtimoiy xizmatlar: ta’lim, sog‘liqni saqlash, suv, kommunal xizmat va issiqlik bilan ta’minlash xizmati shunday xizmatlar sirasiga kiradi.

Ijtimoiy soha tarmoqlarini tahlil qila turib, ko‘pchilik mutaxassislar qaysi kuchlar islohotlarga ta’sir ko‘rsatishi, ularning manfaatlari va qiziqishlari qanday, ularning fikrlari qanday o‘zgaradi kabi savollarga e’tibor qaratilmoqda. Taalluqli guruhlardan manfaatlarni aniqlash va o‘rganish ushbu sohada vujudga kelayotgan jarayonlarni to‘g‘ri tushunishning garovidir. Shu bilan birga, manfaatlar ijtimoiy subyektlarning faoliyatli nuqtai nazaridan tushuniladi. YA’ni, ular ehtiyojlarning qondirilishini ta’minlovchi faoliyat turlarini aniqlashga mo‘ljal olish tushuniladi.

Xalq xo‘jaligining quyidagi tarmoqlari, ijtimoiy soha jumlasiga kiradi: turar-joy kommunal xo‘jaligi, aholiga maishiy xizmat ko‘rsatishning ishlab chiqarishga xos bo‘lmagan turlari, yo‘lovchi transporti, aloqa (ijtimoiy soha Aholii va aholiga xizmat ko‘rsatish yuzasidan), suv xo‘jaligi (ijtimoiy soha hususida), sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta’minot, xalq ta’limi, madaniyat va san’at, kredit va davlat sug‘urtasi, hokimiyat va jamoat Aholiini boshqarish[11].

Ta’kidlash kerakki, bu jabhada muayyan yutuqlarga erishilmoqda, ammo ularning ba’zilarida yaxshilanish, ayrimlarida yomonlashuv kuzatildi.

Har bir hududning demografik holati va aholi talabidan kelib chiqqan holda turmush sharoitini yaxshilashda ijtimoiy infratuzilmani, jumladan, xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirish uchun muhim zamin yaratadi.

[11] Павленко В.Ф. Планирование территориального развития (территориальнқй аспект планирования). –М.: Экономика, 1984.-С267.

## 3.4.Qishloq joylarda aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy rivojlantirish

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “qishloq joylarda qishloq turmush darajasini oshirish, ular manfaatlarini yanada to‘liq ta’minlashga qaratilgan huquqiy bazani mustahkamlash, qishloq joylardagi infratuzilma tarmoqlarini yanada rivojlantirish zarur”[12].

Ijtimoiy sohani rivojlantirish va rejalashtirish moddiy ishlab chiqarishga nisbatan ko‘proq hududiy omillar hamda demografik jarayonlarga bog‘liq. Ijtimoiy sohani rivojlantirishni rejalashtirishda hudud iqtisodiyotining rivojlanish darajasini, aholi punktlari hududlarining katta-kichikligini, aholi soni va tarkibi, uning qay tariqa joylashganini aniq hisobga olish zarur. Ijtimoiy soha tarmoqlari kishilarning shaxsiy talablarini qondirgani uchun xizmatlarning bir turini ikkinchisi bilan almashtirish imkoniyati cheklangan.

Mehnat bozorini davlat tomonidan tartibga solishda huquqiy, ma’muriy va iqtisodiy chora-tadbirlar ko‘riladi. Bu usullar ishsizlik darajasini pasaytirish, mehnat resurslaridan samarali foydalanish, mehnat xizmatiga qondirilmagan talabni yo‘qotish, mehnat xizmatiga talab va uning taklifi eng maqbul nisbatiga erishish maqsadlariga yo‘naltiriladi.

Jahon moliyaviy inqirozi sharoitlarida tashqi mehnat migratsiyasining kamayishi, boshqa salbiy oqibatlar milliy mehnat bozoriga ham ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi. Shuning uchun O‘zbekiston Respublikasida Inqirozga qarshi choralar dasturida mehnat resurslaridan samarali foydalanish, mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta’minlash darajasini oshirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilar ko‘zda tutilmoqda:

-jahon bozorida talab pasayib borayotgan bir sharoitda ichki bozorda talabni rag‘batlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash. Bu mamlakatda iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlarini saqlab qolishda g‘oyat muhim ahamiyatga ega ekanligi bilan bir qatorda yangi ish o‘rinlari yaratishga ham xizmat qiladi;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish. Bugungi kunda mamlakatimizda ish bilan band bo‘lgan jami aholining

---

[12] Каримов И. А. Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш- бизнинг олий мақсадимиз.-Т.: Ўзбекистон, 2009.- 62б.

76 fiozdan ko‘prog‘i aynan shu sohada mehnat qilmoqda.Shu bilan birga mamlakat ish bilan band aholisi daromadlarining 70 foiz ham mazkur sektor hissasiga to‘g‘ri keladi. Yangi tashkil etilayotgan kichik va xususiy korxonalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida imtiyozli kredit jamg‘armasining resurs bazasini ikki barobar oshirish ko‘zda tutilgan;

- xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish. Mazkur sektorga doir hududiy dasturlarni qayta ko‘rib chiqish va qishloq joylarda ularni aholi, ayniqsa yoshlar bandligining, qishloqda hayot darajasining oshirishining muhim omili sifatida jadal rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqilishi belgilangan;

-ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish. Bu ko‘p mehnat talab qiladigan keng ko‘lamli soha hisoblanadi. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yangi ish o‘rinlarini tashkil etish, aholining, ayniqsa yoshlarning ish bilan bandligini ta’minlash, oilalarning daromadlari va farovonligini oshirish maqsadiga xizmat qiladi;

- qishloqda sanoat ishlab chiqarish va qurilishni jadal rivojlantirish, dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash bo‘yicha zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan ixcham korxonalarni tashkil etish. Bu ish o‘rinlariga talab doimo katta bo‘lgan qishloqlarda aholi, ayniqsa yoshlarni ish bilan ta’minlash muammosini hal etish imkoniyatini beradi.

Ma’lumki, O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Xususan, Qashqadaryo Tumani aholisining 60 foizini qishloq aholisi tashkil qiladi. Qishloq xo‘jaligi kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, agrosanoat majmuida tadbirkorlik o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ravnaq topmoqda.

Shu bilan bir qatorda :

- ➢ agrosanoat majmuida tadbirkorlar yangi texnika va texnologiya bilan kam darajada ta’minlanganligi va mavjudlari eskirib qolganligi;
- ➢ turli kasb va tajribaga ega bo‘lgan kishilarnig asosiy qismi kichik biznes sohasiga o‘tib ketishi munosabati bilan vujudga kelgan alohida iqtisodiy vaziyatning mavjudligi;

- ➢ bozor sharoitida tadbirkorlik faoliyati uchun zarur bilim va tajribaning yetishmasligi;
- ➢ bozor infratuzilmasining agrosanoat majmuiga toʻliq kirib bormaganligi qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Mazkur muammolarni hal etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

- ➢ Tuman tumanlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizligi kafolatlarini kengaytirish;
- ➢ Tuman tumanlarida qishloq xoʻjaligi sohasini rivojlantirishda kreditlar berish tizimini soddalashtirish;
- ➢ Tuman tumanlarida tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam koʻrsatuvchi qishloq infratuzilma obyektlarini shakllantirish;
- ➢ Tuman tumanlarida faoliyat sohalari boʻyicha tadbirkor kadrlarni tayyorlashni kuchaytirish;
- ➢ Tuman tumanlarida xususiy tadbirkorlarning moddiy resurslardan foydalanishi uchun qulay shart-sharoit yaratish;
- ➢ qishloq xoʻjaligi sohasidagi tadbirkorlarning bozor konyukturasi toʻgʻrisidagi axborotlarni olishiga va bozorni oʻrganishiga keng imkoniyatlar yaratish;
- ➢ Tuman tumanlarida kichik biznes subyektlarini zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan taʼminlashga koʻmaklashish;
- ➢ Tuman tumanlarida samarali faoliyat yuritib kelayotgan fermer va dehqon xoʻjaliklarni moddiy va maʼnaviy ragʻbatlantirishni keng yoʻlga qoʻyish[13]. Aholi daromadlari darajasi bilan oʻlchanmaydigan shunday xizmatlar ham borki, bugungi hayot tarzini ularsiz tasavvur qilish qiyin. Ijtimoiy xizmatlar: taʼlim, sogʻliqni saqlash, suv, kommunal xizmat va issiqlik bilan taʼminlash xizmati shunday xizmatlar sirasiga kiradi.

Ijtimoiy soha tarmoqlarini tahlil qila turib, koʻpchilik mutaxassislar qaysi kuchlar islohotlarga taʼsir koʻrsatishi, ularning manfaatlari qanday, ularning qiziqishlari qanday va ularning fikrlari qanday oʻzgaradi kabi savollarga eʼtibor qaratilmoqda. Taalluqli guruhlardan manfaatlarni aniqlash va oʻrganish- ushbu sohadagi vujudga kelayotgan jarayonlarni toʻgʻri tushunishning garovidir. Shu

---

[13] Косон тумани ҳокимлиги материаллари.

bilan birga manfaatlar ijtimoiy subyektlarning faoliyatli nuqtai nazaridan tushuniladi. YA’ni ular ehtiyojlarning qondirilishini ta’minlovchi faoliyat turlarini aniqlashga mo‘ljal olish tushuniladi.

Ta’kidlash kerakki, bu jabhada muayyan yutuqlarga erishilmoqda, ammo ularning ba’zilarida yaxshilanish, ayrimlarida yomonlashuv kuzatildi.

Har bir hududning demografik holati va aholi talabidan kelib chiqqan holda turmush darajasini yaxshilashda ijtimoiy infratuzilmani, jumladan, xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirish uchun muhim zamin yaratadi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek qishloq joylarda qishloqda turmush darajasini oshirish, qishloq ahlining manfaatlarini yanada to‘liq ta’minlashga qaratilgan huquqiy bazani mustahkamlash, qishloq joylardagi infratuzilma tarmoqlarini yanada rivojlantirish zarur[14].

Ijtimoiy sohani rivojlantirish va rejalashtirish moddiy ishlab chiqarishga nisbatan ko‘proq hududiy omillar va demografik jarayonlarga bog‘liq. Ijtimoiy sohani rivojlantirishni rejalashtirishda hudud iqtisodiyotining rivojlanish darajasini, aholi punktlari hududlarning katta-kichikligini, aholi soni va tarkibi, uning qay tariqa joylashganini aniq hisobga olish zarur. Ijtimoiy soha tarmoqlari kishilarning shaxsiy talablarini qondirgani uchun xizmatlarning bir turini ikkinchisi bilan almashtirish imkoniyati cheklangan.

Fikrimizcha, yuqorida amalga oshirilgan tahlillar aholi turmush darajasini belgilovchi asosiy omillar sifatida –makroiqtisodiy omillar-inflyatsiya, soliq va pul-kredit siyosati, demografik o‘sish, ish bilan bandlik darajasi, mehnat bozori, ish vaqti, iqtisodiy o‘sish, uy-joy va kommunal xizmatlar bilan ta’minlanganlik, aholi salomatligi, ta’lim darajasi, ijtimoiy ta’minot tizimidan iborat.

Demografik jarayonlarni o‘rganish aholining mehnatga layoqatli qismining iqtisodiyot tarmoqlarida samarali bandligini bilish uchun ham muhimdir. Band bo‘lgan iqtisodiy faol aholini hududlar miqyosida tahlil qilish muhim hisoblanadi. Chunki, bunday tahlil, mehnat resurslarining hududlar miqyosida qay darajada joylashganligi va shunga binoan ishlab chiqarish yo‘nalishlariga qanday o‘zgartirishlar

---

[14] Президент Ислом Каримовнинг 2008 йил 5 декабрдаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 16 йиллигига бағишланган йиғилишда сўзлаган маърузаси.

kiritish, hududlar bo‘yicha ishsizlar sonini aniqlash, hududlar miqyosida mehnat birjalarining qay ahvolda ekanligi kabi makroiqtisodiy masalalarni o‘rganish uchun zarurdir.

Shu bilan bir qatorda :

- agrosanoat majmuida tadbirkorlar yangi texnika va texnologiya bilan past darajada ta’minlanganligi va mavjudlari eskirib qolganligi;
- turli kasb va tajribaga ega bo‘lgan kishilarnig ko‘pchiligi kichik biznes sohasiga o‘tib ketishi munosabati bilan vujudga kelgan alohida iqtisodiy vaziyatning mavjudligi;
- bozor sharoitida tadbirkorlik faoliyati uchun zarur bilim va tajribaning yetishmasligi;
- bozor infratuzilmasining agrosanoat majmuiga to‘liq kirib bormaganligi bir qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Mazkur muammolarni hal etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi deb hisoblaymiz:

- Tuman tumanlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizligi kafolatlarini kengaytirish;
- Tuman tumanlarida qishloq xo‘jaligi sohasini rivojlantirishda kreditlarni berish tizimini soddalashtirish;
- Tuman tumanlarida tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam ko‘rsatuvchi qishloq infratuzulma obyektlarini shakllantirish;
- Tuman tumanlarida faoliyat sohalari bo‘yicha tadbirkor kadrlarni tayyorlashni kuchaytirish;
- Tuman tumanlarida xususiy tadbirkorlarning moddiy resurslardan foydalanishi uchun qulay shart-sharoit yaratish;
- qishloq xo‘jaligi sohasidagi tadbirkorlarning bozor konyukturasi to‘g‘risidagi axborotlarni olishiga va bozorni o‘rganishiga keng imkoniyatlar yaratish;
- Tuman tumanlarida kichik biznes subyektlarini zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta’minlashga ko‘maklashish;
- Tuman tumanlarida samarali faoliyat yuritib kelayotgan fermer va dehqon xo‘jaliklarni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirishni keng yo‘lga qo‘yish[15].

Aholini, ayniqsa, qishloq aholisini ish bilan ta’minlashda ham

[15] Қашқадарё вилояти ҳокимлиги материаллари

xizmat ko‘rsatish sohasining ahamiyati kattaligiga yil davomidagi ma’lumotlarni tahlil qili natijasida ham amin bo‘ldik. Bu masala istiqbolda yanada katta ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, agrar sohada servis xizmatini rivojlantirish, takomillashtirish borasida hukumatimiz tomonidan chiqarilgan huquqiy-meyoriy hujjatlarning alohida o‘rni bor. Qishloq xo‘jaligi sohasida keng ko‘lamda olib borilayotgan islohotlarning amaliy samarasi ko‘p jihatdan qishloq joylarda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish, agrobiznes tizimini texnika, mablag‘, xizmat ta’minotida qo‘llab –quvvatlash bilan bevosita bog‘liqdir.

Shunday qilib, mamlakat rivojining hozirgi bosqichning o‘ziga xos hususiyati qishloqlarda infratuzilma rolini oshirish va uni takomillashtirishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining avvalgi boblarida o‘rganilayotgan muammoning nazariy jihatlarini tahlili keltirib o‘tilgan va Tuman qishloq joylarining turmush darajasini oshirish sohasi elementlariga baho berilgan bo‘lib, ular asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, yuqoridagi bobda aholining turmush sharoitiga ta’sir qiluvchi kuchli va kuchsiz bog‘lanishlarni, korrelyatsion tahlil usulidan foydalanib, ishonchliligini baholadik. Korrelyatsion tahlil orqali aholini turmush darajasiga ta’sir etuvchi bog‘liqlik meyorlarini  ishlab chiqish va o‘lchash mumkinligiga amin bo‘ldik. Lekin korrelyatsion va regrission modellar orqali ijtimoiy soha jarayonlari munosabatlarini sababini aniqlay olmaymiz.

Buning uchun sxemadan foydalanamiz.




**3.4.35-rasm. Aholining turmush darajasini ijtimoiy rivojlantirishning imitatsiya modeli.**

Har bir bosqich yakuniy natijaga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatadi va ulardagi yo‘l qo‘yiladigan xatoliklar oldingi bosqichlardagi xatoliklar bilan ham belgilanadi.

# XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan hususiyatlarni inobatga olgan holda mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar, fikrimizcha, quyidagi yoʻnalishlarda amalga oshirildi va davom ettirilmoqda:

1. Oʻzbekistonda bosqichma-bosqich amalga oshirilgan islohotlar jarayonida ijtimoiy iqtisodiy hayotning barcha sohalarida oʻzgarishlarga erishildi, iqtisodiyotning yangi xoʻjalik yurituvchi subyektlarini takomillashtirish aholi turmush darajasini oshirishning institusional asoslari yaratildi.

2. Koson tuman qishloq aholisining turmush darajasini yaxshilash, qishloq taraqqiyoti va farovonligini oshirish uchun, qishloq joylarda aholi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan va ijtimoiy yoʻnaltirilgan islohotlarga amal qilish lozim.

3. Koson tuman qishloq joylarda aholi turmush tarzi va darajasini yaxshilash, qishloq aholisi turmush darajasini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, qishloq bilan shahar oʻrtasidagi tafovutlarni bartaraf etish, qishloqlarni rivojlantirish qonuniyatlarini bilish, uni modernizatsiya qilish yoʻllarini tanlashda qarorlar qabul qilish uchun samarali vosita zarur.

4.Bozor munosabatlari tamoyillari va qishloq joylarda demokratik islohotlarni liberallashtirish va fuqarolik jamiyatlarini shakllantirishda mustaqillik va erkinliklarni kengaytirish maqsadga muvofiq boʻladi.

6. Qishloq aholisining turmush tarzi, turmush sharoiti va farovonligini yaxshilash maqsadida aholiga xizmat koʻrsatish sohalarini yanada takomillashtirish va istiqbolda qishloq taraqqiyotini rivojlantirishning dasturlarini ishlab chiqish zarur.

7.Qishloq aholisiga xizmatlar koʻrsatish sohasining asosiy koʻrsatkichlarini, ular turlari orasidagi nomutanosiblikni aniqlash, xoʻjalik yuritishning bozor mexanizmini takomillashtirish zarur.

8. Qishloq joylarda xizmatlar koʻrsatish sohasida kichik biznes va hususiy tadbirkorlikni keng taraqqiy ettirish kabi ustuvor masalalarni amalga oshirish va turmush sifatini yaxshilash uchun, qishloq aholisi demografik jarayonlarini tartibga solish, qishloq joylarda aholi bandligini oshirish, qishloq xoʻjaligidan boʻshagan xodimlarni mehnat bilan band etish katta ahamiyatga ega.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi farmoni №PF-3080, 30.05.2002 http://www.lex.uz/Pages/GetAct.aspx?lact_id=152470

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori №200, 06.06.2002 http://www.lex.uz/Pages/GetAct.aspx?lact_id=267044

3. O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risida»gi qonuni №560-II, 11.12.2003 http://www.lex.uz/Pages/GetAct.aspx?lact_id=83472

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori №PQ-1730, 21.03.2012 http://www.lex.uz/Pages/GetAct.aspx?lact_id=1986827

5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2005 y., 27-son, 189-modda; 2013 y., 45-son, 584-modda)

6.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 30 oktabrdagi PF-4578-sonli Farmoni tahririda — O'R QHT, 2013 y., 45-son, 584-modda

7.O''zbekiston respublikasi prezidentining qarori

**zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida**

*(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 13-son, 139-modda)*

8.Rob P. Sistemi baz dannix: proyektirovaniye, realizatsiya i upravleniye (5-ye izdaniye) izdatelstvo "BXV - Sankt-Peterburg" ·1200 str, 2003 g. ·.

9.Popov I. I., Maksimov N. V., Golitsina O. L. Bazi dannix. izdatelstvo "Forum" · 352 str,2004 g. ·

10.Digo S.M. Bazi dannix Proyektirovaniye i ispolzovaniye . izdatelstvo "Finansi i statistika" · 592 str, 2005 g.
11.Deyt K. Vedeniyev sistemi baz dannix 8-izd. "Vilyams" ·1328 str, 2005 g.
12.Kuznetsov S.D. Vvedeniye v standarti yazika baz dannix SQL.M. 1998
13.Astaxova I.F., Tolstobrov A.P. SQL v primerax i zadachax. Uchebnoye posobiye. Novoye znaniye, 176 str, 2002 g.
14.Polyakova. L.N. Osnovi SQL. Kurs leksiy. Uchebnoye posobiye. izdatelstvo "INTUIT.RU" · 368 str, 2004 g. ·
15.Ben Forta Osvoy samostoyatelno SQL. 10 minut na urok (3-ye izdaniye) izdatelstvo "Vilyams" · 288 str, 2005 g. ·
16.AllenK. 101 Oracle PL/SQL. Izdatelstvo: LORI. 2001.
17.Byuli A., Mishra S. Sekreti Oracle SQL. Izdatelstvo: Simvol -Plyus , 368 str., 2003.
18.Maksim Kuznetsov, Igor Simdyanov, Sergey Golishev. PHP 5 na primerax. Seriya: Na primerax. Izdatelstvo: BXV-Peterburg, 2005 g., 576 str.